

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

UMAROVA IRODA BAKIROVNaNANING

**“XULQI OG‘ISHGAN O‘SMIRLARD
QADRIYATLI MOTIVATSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI”
MAVZUSIDA**

Monografiya

**“Ziyo nashr-matbaa”XK
Guliston-2022 yil**

UDK: 159,9

KBK: 88.8

U: 47

Iroda Umarova. Xulqi og'ishgan o'smirlarda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlar/Monografiya/ - Guliston: "Ziyo nashr-matbaa"XK. 2022-yil. 104 bet.

Maskur monografiyada xulq og'ishiga ega bo'lgan yoshlarning jismoniy va ruhiy uyg'unlikda kamol topishda, voyaga yetmaganlar o'rtasida turli salbiy illatlarni oldini olish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, xulq og'ishi, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, voyaga yetmaganlarda asotsial xulqning demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama ilmiy tahlil qilinganligini va ijobiy tomonlarini shakillantirish bo'yicha ma'lumot berad. Og'ishgan xulq psixik fenomenlar qatorida o'zining shaxsiy javonini egallaydi. U psixik kasalliklar, patalogik holat, nevrozlar, psixosomatik parokandalik va h. k. ko'rinishlar qatorida mavjuddir. Ushbu fenomenlar tibbiy me'yorlar nuqtai nazaridan "sog'lik - kassalik oldi - kasallik" og'ishida ko'rib chiqiladi. Shaxsning og'ishgan xulqini, bizning nazoratimizda psixopatologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ma'nosizdir. Og'ishgan xulq ijtimoiylashuv, moslashmaganlik, yakkalanish o'qida shaxsning ijtimoiy psixologik maqomini aks ettiradi. Ma'lumki mahsus adabiyotlarda og'ishgan xulq atamasi ko'pincha deviant axloq sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir birini o'rnini to'ldiruvchi ikki atamani qo'llaymiz.

Ushbu monografiyada natijasidan olingan xulosalar huquqshunoslik, ijtimoiy, pedagogik va yosh davrlari psixologiyasi fanlaridagi Xulqi og'ishgan o'smirlarda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, hududiy statistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy nazariy jixatdan boyitishga xizmat qiladi. Monografiyadagi g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar asosida xulq og'ishining yosh, individual-psixologik ijtimoiy psixologik omillarini o'rganish va uning oldini olish bo'yicha muayyan konsepsiyaning yaratilishiga munosib hissa qo'shadi va ulardan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin.

Monografiya ona onalar tarbiyachi o'qituvhilar, o'qituvchi murabbiylar psixologiya mutaxassisligi bo'yicha bakalavr talabalar va barcha ta'lim tarbiya berish jarayoni bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishi mumkun.

Mazkur "Xulqi og'ishgan o'smirlarda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlar" nomli monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 31-maydagi №10-sonli yig'ilishi bayonnomasi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Mas'ul muxarrir: Abdukarimov X. p.f.d dotsent.

Taqrizchilar: Falsafa doktori (PhD) Ya.Nurimbetova

Psixol.f.n., dots. Xalilova N

ISBN – 978-9943-7338-2-4

© "Ziyo nashr-matbaa" nashriyoti

© Iroda Umarova

MUNDARIJA.

KIRISH.....4

I. BOB.XULQI OG’ISHGAN O’SMIRLARDA QADRIYATLI MOTIVATSIYA TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

1.1.Xulqi og’ishgan o’smirlar muammosining Xorij psixologlari tomonidan o’rganilishi.....10
1.2.Xulqi og’ishgan o’smirlar muammosining O’zbekiston psixologlari tomonidan o’rganilishi.....26
1.3.Xulq og’ishi tushunchasi va uni aniqlash mezonlar.....33

II.BOB.XULQI OG’ISHGAN O’SMIRLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TA’SIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1.O’smirlarni milliy umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash xulq og’ishining oldini olish omili sifatida.....40
2.2.Mahalla va oilalardagi sog’lom muhitda o’smirda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirish.....45
2.3.O’smirlarda xulq og’ishini oldini olish yuzasidan psixologik maslahatlar.....52

III.BOB.XULQ OG’ISHIGAN O’SMIRLAR SHAXSI VA ULARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O’RGANISH TAJRIBALARI

3.1.Xulqi og’ishgan o’smirlar psixologiyasini diagnostik o’rganish.60
3.2.Xulqi og’ishgan o’smirlar bilan ishlash va ularga ta’sir kursatish.....67
Xulosa va takliflar.....70
Adabiyotlar royxati.....73
Ilovalar.....77

**Bizni hamisha o'ylantirib keladigan
yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning
odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan
aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.
Sh.M. Mirziyoyev**

KIRISH

Yurtimizda umuminsoniy qadriyatlarining qayta tiklanayotganligi, insonparvarlik va ijtimoiy adolat, erkinlik va ozodlik, barqarorlik va farovonlik, ezgulik va taraqqiyotga intilish va kishilar o'rtasida mehr - oqibat, muruvatlilik hamda oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalash, ularni yot mafkuraviy xurujlardan asrash, ular o'rtasida tarbiya buzilishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida – “Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari”¹ belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF 5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni², 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.2017. – 6 (766)-сон.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб қувватлаш тўғрисида”ги Фармони. –Т.: 2017. -Б1-3.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizni hamisha o’ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so’z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o’zgaryapti. Bu o’zgarishlarni hammadan ham ko’proq his etadigan kim yoshlar. Mayli, yoshlar o’z davrining talablari bilan uyg’un bo’lsin. Lekin ayni paytda o’zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug’ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks- sado berib, o’zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan³” - degan fikrlari barchamizga dasturilamal bo’lishi zarur. Ta’kidlash joizki, milliy qadriyatlar qatori, milliy istiqloq mafkurasining vazifasi mustaqil tafakkur sohibi, ma’naviy barkamol, komil insonni shakllantirish, jamiyatni yot va begona g’oyalar ta’siridan himoya qilish, ko’p millatli o’zbekistonliklar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni hurmat qilish, el-yurt uchun fidoyilik, iymone’tiqod, halollik kabi yuksak ma’naviy sifatlarni shakllantirish, millatimiz sha’nini butun dunyoda himoya qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yoshlarimizni o’zgalar fikrini mustaqil tahlil qila oladigan, o’z fikriga ega, ma’nan yetuk, jismonan sog’lom, faqat o’z hayoti, Vatanimiz kelajagi uchun foydali bo’lgan amallarni bajaradigan qilib tarbiyalash oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri desak, xato bo’lmaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o’z fikrlarida “Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁴ degan so’zlari dasturilamal bo’lib xizmat qilmoqda.

Dunyoda voyaga yetmaganlar o’rtasida xulq og’ishi va uning oldini olish masalasi keyingi yillarda ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, BMTning 1994 yil 29 iyuldagi “Bola huquqlari to’g’risida”gi konvensiyasiga muvofiq “voyaga yetmaganlarga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday harakat (harakatsizlik) birinchi navbatda, uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilmog’i lozim” deb, ta’kidlanadi⁵.

Jahon miqyosida voyaga yetmaganlar o’rtasida xulq og’ishi va tarbiya buzilishi muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan bog’liq

³Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этти- риб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016.Б.486

⁴Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.

⁵www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/juveniles_deinquency_prevention.shtml

masalalarga alohida e'tibor berilib, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishini oldini olish va ular xulq atvorida kelib chiqayotgan turli salbiy illatlarning psixologik sabablarini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati voyaga yetmaganlarda xulq-atvor buzilishlarini tahlil qilish va huquqni muhofaza qilish idoralari, har bir voyaga yetmagan huquqbuzarga nisbatan individual yondashuv siyosati ularni rehabilitatsiya qilish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi omillarni korrektsiyalashga yo'naltirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning jismoniy va ruhiy uyg'unlikda kamol topishi, voyaga yetmaganlar o'rtasida turli salbiy illatlarni oldini olish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, xulq og'ishi, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, voyaga yetmaganlarda asotsial xulqning demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama ilmiy tahlil qilinganligini ko'ramiz. Xususan, G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev⁶, V.M.Karimova⁷, B.M.Umarov⁸, Z.F.Kamaletdinova⁹, N.A.Sog'inov¹⁰, G.Tulaganova¹¹, E.Quljonov, N.G'.Kamilova¹², G'.Normurodov, Q.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, I.Ismailov, O.A.Karimova kabi psixolog va boshqa soha olimlari bolalarning ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan tarbiyaviy muhit ta'siri bilan bog'lab tushuntiradilar. Ular ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlikni esa bola ongi va xulqida turli og'ishlarni keltirib chiqarishini ilmiy dalillar bilan izohlashga harakat qiladilar.

⁶ Ғозиев Э.Ғ.,Тулаганова Г. Трудные подростки. Т.: Ёш гвардия. 1989. - 71 с., Ғозиев Э.Ғ. Ўспиринлар ахлоки ва рухияти. Оила этикаси ва психологияси. - Т. 2000. - Б.33-38

⁷ Каримова В.М. Оила саломатлигида инсон рухиятининг имкониятлари. Тўплам. -Т.: 2003. - Б. 3-7., Каримова В.М. Саломатлик психологияси. Т.: «Янги аср авлоди». 2005. -72 б.

⁸ Умаров Б.М. Болалар тарбиясида этнопсихологик ва этнопедагогик хусусиятларни ҳисобга олиш.//Халқ педагогикаси бўйича халқаро симпозиум материаллари тўплами. Термиз, 1995. - Б.34-37.,Умаров Б.М. Ўсмирларда жиноятчилик хулқининг ижтимоий-психологик хусусиятлари.//«Педагогик таълим». Тошкент, 2001. № 2. –Б. 44-46., Умаров Б.М. Соғлом авлод асослари. -Тошкент.: Ибн Сино. 2001. -117 б., Умаров Б.М. Ўзбек оилавий тарбиясидаги айрим нуқсонлар.//«Халқ таълими». Тошкент, 2003. № 2. – Б.55-57., Умаров Б.М. Семейные факторы социального риска и отклонения поведения несовершеннолетних.//ЎзДЖТУ, «Ёш олим – 2006» илмий амалий анжумани материаллари тўплами. Тошкент, 2006. - Б. 193-197., Умаров Б.М. Ўсмирлик ёши хусусиятлари ва характер ўзгариши.//

⁹ Камалетдинова З.Ф. Психологи.//Личностно-ориентированный подход к современному обучению. Сб.науч. статей. Часть 9. - С.55.59.

ческие особенности мотивационно – смысловой сферы старшиклассников с отклоняющимся поведением. //Дисс. канд. психол. наук. Ташкент. 1993. - 148 с

¹⁰ Соғинов Н.А. Соғлом авлодни шакллантиришнинг айрим жиҳатлари.//«Соғлом авлод учун». 2002, - № 8. - Б.17-32.

¹¹ Тулаганова Г.К. Тарбияси қийин ўсмирлар. Т.: “Ўзбекистон”. 2005. -122 б, Ғозиев Э.Ғ.,Тулаганова Г. Трудные подростки. Т.: 1999. - 71 с.

¹² Камилова Н.Ғ. Хулқи оғишган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасалари тарбияланувчилари ресоциализациясининг психологик хусусиятлари.Автореферати. Тошкент.:2020. -77 б.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining Z.A.Astemirov, N.S. Gileva¹³, K.E.Igoshev¹⁴, L.M.Zyubin¹⁵, A.D.Glatochkin, B.T.Kondrashchenko¹⁶, L.I.Dolgova, E.B.Mel'nikova, S.V. Knijnikova, A.YA.Minin, ye.V.Zmanovskaya, G.M.Andreyeva, A.S.Bel'kin, YU.V.Gerbeyev, I.A.Nevskiy, A.V.Zavalyuk, A.Jumaboyev, A.M.Dolgova kabi bir qator pedagog olimlar, L.I.Bojovich, A.A.Vdovchenko, G.G.Bochkareva, I.P.Bashkatov, A.N.Leon'tev¹⁷, N.D.Levitov va shu kabi boshqa taniqli psixolog olimlar o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishi va uning ijtimoiy-psixologik omillarini, voyaga yetmaganlar shaxsida xulq og'ishining kelib chiqishiga yosh davri xususiyatlari, ijtimoiy muhitning asotsial xulq kelib chiqishidagi o'rni, yoshlarda xulq og'ishi kelib chiqishining asosiy sabab va motivlari hamda voyaga yetmaganlar o'rtasida asotsial xulq kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritishga harakat qilganlar. Bir qator tadqiqotlarda (M.N.Alemaskin, Z.V.Bayeryunas, N.YU.Maksimova, A.I.Ostrovskiy¹⁸, B.A.Mirenskiy va boshqalar) voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining psixologik-pedagogik mexanizmlarini har tomonlama o'rganmay turib, voyaga yetmaganlar o'rtasida asotsial xulqni oldini olish va uni diagnostika qilish ishlarini amalga oshirish mumkin emas deb qayd etadilar.

Uzoq va yaqin xorij psixologiyasida Bandura A., Valters R.X.¹⁹, Binder A.²⁰, E.Bern, R.Beron, D.Richardson B.A.Mirenskiy, B.A.Rayskiy, I.D.Fel'dshteyn²¹ va Z.Freyd²² kabi tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarni o'qishga va ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish masalasi ular o'rtasidagi qonunbuzarlik va xulq og'ishi kelib chiqishining oldini olishda eng samarali yo'ldir deb ko'rsatadilar.

Yu.M.Antonyan, A.M.Seletskiy, A.I.Miller, N.F.Kuznetsova kabi bir qator sotsiolog va faylasuf olimlar voyaga yetmaganlarda xulq

¹³ Гилева, Н.С. Психология девиантного поведения : учебно-методическое пособие. - Изд. 2-е, испр. и доп. - Омск: Издательство СибГУФК. 2012. -128с.

¹⁴ Игошев К.Е., Миньковский Г.М. Семья, дети, школа. - М.:1999.- 448 с.

¹⁵ Зюбин Л.М. Учебно-воспитательная работа с трудными учащимся. М.: Высшая школа. 1992. - 190 с., Зюбин Л.М. Психология трудновоспитуемых. В.кн.: Наука и техника. Рига. 2000. № 5. -С.36-39., Зюбин Л.М. Тарбияси қийин ўқувчилар билан олиб бориладиган ўқув-тарбиявий ишлар. Т.: «Ўқитувчи», 1997. - 113 б.

¹⁶ Кондрашченко Б.Т. Девиантное поведение у подростков: социально-психологический и психиатрический аспект. Минск, 1998. - 206 с.

¹⁷ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: «Политиздат». 1997. - С. 304.

¹⁸ Островский А.И. Профилактика правонарушений школьников//Учебное пособие для преподавателей и студентов педагогических ВУЗ. -Ташкент, «Ўқитувчи». 1995. - 216 с.

¹⁹ Bandura A., Walters R.H. Social learning and personality development. Neu York: Holt and Winston. 1993. P-25.

²⁰ Binder A. Juvenile delinquency. Annual Review of Psychology, 1988. 39. P. 252-282.

²¹ Фельдштейн Д.И. Психология современного подростка. - М.: «Педагогика». 1997. - 237 с.

²² Фрейд З. Психология масс и анализ человеческого «Я». Современные проблемы. - М.: 1995. - С. 9-11.

og'ishining ijtimoiy-demografik omillarini tadqiq qilishga harakat qiladilar.

O'smirlarda umuminsoniy qadriyatlar asosida xulqning ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini o'rganish va uning oldini olish bo'yicha profilaktik chora - tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik darajasini ilmiy, psixologik-pedagogik jihatdan asoslashdir. O'z oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

1. Xulki og'ishining ega bo'lgan o'smirlar shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish.

2. O'smirlarda umuminsoniy qadriyatlar asosida xulki og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy - psixologik omillarni o'rganish.

3. O'smirlarda umuminsoniy qadriyatlar asosida xulq og'ishining sabab va motivlarini tadqiq qilish.

4. O'smirlarda umuminsoniy qadriyatlar asosida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora - tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish.

5. O'smirlik yoshidagi bolalarda o'z-o'zini baholash xususiyatlari va uning xulq og'ishining kelib chiqishi ta'sirini o'rganish.

Dastlabki ilmiy taxminlarimizga ko'ra, umuminsoniy qadriyatlar asosida xulqning og'ishining kelib chiqishi quyidagi holatlarga bog'liqdir:

o'smirlarning o'z-o'zini baholash darajasining pastligi, hamda ularning ma'naviy jihatdan to'la shakllanmaganligi xulki og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin;

o'smirlar bilan ota-onalar, o'qituvchi va katta yoshdagi kishilarning adolatsiz, qo'pol muomala munosabatda bo'lishlari ularda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin;

- o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda ularning yosh va individual - psixologik xususiyatlarini hisobga olish profilaktik chora-tadbirlar ta'sirchanlik darajasining oshishiga xizmat qiladi deb o'ylaymiz..

Shundan iboratki, tadqiqot natijasidan olingan xulosalar huquqshunoslik, ijtimoiy, pedagogik va yosh davrlari psixologiyasi fanlaridagi Xulqi og'ishgan o'smirlarda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, hududiy statistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktab psixologlari, ijtimoiy, pedagogik, yosh davrlari, huquqshunoslik psixologiya sohasida ishlaydigan tadqiqotchilar faoliyatlarida;
2. O'qituvchilar va ota-onalarning bolalar bilan muomala munosabat jarayonlarida;
3. Tegishli yo'nalish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqishda;
4. Ommaviy axborot vositalarida umuminsoniy qadriyatlar asosida asotsial xulq og'ishi muammosi bo'yicha maxsus ko'rsatuvlar, radio eshittirishlar va ruknlar tashkil etishda samarali foydalanish mumkin.

I BOB. XULQI OG'ISHGAN O'SMIRLARDA QADRIYATLI MOTIVATSIYA TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA.

1.1. Xulqi og'ishgan o'smirlar muammosining Xorij psixologlari tomonidan o'rganilishi.

Ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, xulq og'ishi muammosini ilmiy jihatdan o'rganish ishlari XVII asrning oxiri va XVIII asrning boshlariga kelib keng yo'lga qo'yila boshlandi. Buning sababi bu davrga kelib turli mamlakatlarda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning ko'payib borayotganligi hamda bu holatning insoniyat va jamiyatga yetkazayotgan zarari darajasining ortib borayotganligi holati xulq og'ishi muammosini ilmiy tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqardi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, g'arb mamlakatlarida xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar xususida turlicha qarashlar mavjuddir. Ularning ayrimlarida xulq og'ishining kelib chiqish sabablari biologik omilga bog'lab tushuntirishga harakat qilinsa, ayrimlarida shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga, ularning shakllanish jarayonlariga va ijtimoiy muhitga bog'liq ekanligi to'g'risidagi ta'limotlarning ilgari surilganligini kuzatamiz.

P.Gannushkin va O.V.Kebrikovlarning ta'kidlashlaricha, "Shaxs xarakteridagi aksentuatsiya muayyan vaqt oraliq'ida barqaror, barcha vaziyatlarda deyarli bir xil namoyon bo'lishi va shaxsni ijtimoiy muhit normalariga bo'ysunishini qiyinlashtiruvchi simptomlardir" sifatlarini namoyon etgan bola, ko'cha bolalariga qo'shilgan zahoti boshqa sifatarni yaqqolroq namoyon etadi. [43;116-b.].

Shuning uchun ayrim paytlarda ota-onasi bolasining uyda kamgap, ko'chada sergap ekanligiga ishonmaydi. Ya'ni, o'smirlik davrida turli vaziyatlarda u yoki bu sifatlar aksentuatsiyasi bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, olimlar xarakterdagi aksentuatsiyaning ochiq va yashirin turlarini bir-biridan farqlaydilar. Xonadonda ota-onalar bilan muloqotda yashirin bo'lgan ayrim sifatlar, masalan, urushqoqlik ochiq ko'rinishga o'tishi yoki muayyan vaqt mobaynida xarakteridagi biror sifat yashirinib turishi, keyin vaziyat talab qilganda esa birdaniga namoyon bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ham profilaktika inspektorlari ayrim voyaga yetmaganlar bilan muayyan vaqt ishlagach, "yaxshi yo'lga kirdi" deb tinchlanadilar, lekin ma'lum vaqt o'tgach, o'sha aksentuatsiya tipi yana yuzaga chiqishi mumkin.

Bir qator olimlar izlanishlarida (*K.Leongard, A.E.Lichko, X.Shmishek, G.Ayzenk*) xarakter aksentuatsiyasi klassifikatsiyasi keltirib o'tiladi. Quyida biz X.Shmishek tomonidan keltirib o'tilgan aksentuatsiya klassifikatsiyasining qisqacha tavsifini berib o'tamiz:

Gipertim tip – doimiy ko'tarinkilik, faollik, biror ish orqali o'zini ko'rsatishga intiluvchan bo'lib, ko'pincha tezda paydo bo'ladigan ko'tarinkiliklar natijasida ishini oxirigacha yetkazmaydi va uni tashlab ketishi ham mumkin. Gipertim tipli o'smirlar odatda haddan tashqari hissiyotga beriluvchanlik, qo'zg'aluvchanlik sifatlariga ega bo'ladilar. Bunday voyaga yetmaganlarga sal ortiqcha gapirilsa, darrov yig'lab yuborish yoki aksincha, qattiq xoxolab kulish, yig'lab turib kulish odatlari xosdir.

Xavotirlanuvchi tip – bu xususiyatning asosiy belgisi yuqori xavotirlanuvchanlik, e'tiborsizlik, ehtiyotsizlik, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chish, kishilar bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch keluvchanligi va ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga sekin moslashuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Distimik tip – ko'pincha kayfiyat tushkunligini namoyon etadi. Shuning uchun ular doimiy ravishda tushkunlik kayfiyatida yurganliklari tufayli ko'pincha depressiyalarga chalinib turadi. Hayotlarida hamisha yomon narsalardan qochishga harakat qiladilar. Qilayotgan har bir harakatlarining oqibatini obdan o'ylab ko'radilar.

Pedantik tip – voqea-hodisalarga, muammolarga rasmiy tus berishga harakat qiluvchi, sinkov, kerakli-keraksiz narsalarga haddan ortiq qiziquvchi, o'zini ko'rsatishga intiluvchan, saranjom-sarishtalikni xush ko'ruvchi, maslahatguy, aqliy rivolanish darajasi sust, lekin o'zini aqli ko'rsatishga harakat qiluvchi voyaga yetmaganlardan tashkil topgan.

Jizzaki tip – ancha urushqoq va agressivlikka ega, ularning ko'pincha asab tomirlari tarang, salga o'zini yo'qotib, quyushqondan chiqib ketadigan, hamma narsaga shubha bilan qarovchi, bo'lar-bo'lmasga tutoqib ketadigan voyaga yetmaganlardan tashkil topgandir.

Emotiv tip – hissiy kechinmalarga boy, voqea-hodisalarga hissiy tus beruvchi, ortiqcha so'zamollikni namoyon qiluvchi, ta'sirchan, qo'rqqoq, o'zini ko'rsatishga intiluvchi, affektga moyilligi bilan boshqalardan ajralib turuvchi voyaga yetmaganlardir.

Affektga moyilligi yuqori tip – bunday voyaga yetmaganlar faolligi, qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, voqea – hodisalarga nisbatan kuchli qo'zg'alishni namoyon qiluvchanligi bilan ajralib

turadilar. SHuningdek, ular o'z xatti-harakatlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch keluvchi, bo'lar-bo'lmasga qizishadigan, asabiylik, jizzakilik xususiyatlarini ham namoyon qiladilar.

Demonstrativ, namoyishkor tip - o'zining nuqtai nazarini va menligini ko'rsatishga intiluvchan, egotsentrizm xususiyatiga ega, boshqalardan ajralib turishni xoxlovchi, hammaning diqqat markazida bo'lishga intiluvchi xususiyatlarga ega bo'lgan voyaga yetmaganlardir.

TSikloid tipli - o'smirlardagi xulq-atvor kuzatilganda, birinchi navbatda ulardagi kayfiyatning beqarorligi ko'zga tashlanadi. Chunki siklotomik buzilishlar birinchi navbatda oiladagi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi buzilishlar, ularning asoratlari shaxsning kayfiyatini buzadi, unda depressiya holatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bu holat boshqalardan farqli holda uzoq muddatga cho'ziladigan, uzoq muddat davomida namoyon bo'ladigan psixologik buzilishlar sirasiga kiradi. sikloid o'smirning xarakteri bugun yoki kecha emas, voqea sodir bo'lganidan anchagina avval ro'y bergan voqea-hodisalar, oiladagi surunkali janjallar ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Ekzal'tir tip – ortiqcha darajada shod va xursandchilik kayfiyatiga ega, qattiq hayajonlanadi va uning oqibatida o'zini va o'z xatti-harakatlarini boshqara olmay qoladigan, kayfiyati birdan va tez o'zgaruvchan, beqaror, noturg'un xususiyatlarni namoyon qiluvchilar tipi. [88,89,14].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, (A.E.Lichko, A.A.Vdovchenko, L.Michaux) “deviant xulq voyaga yetmaganlarda asosan xarakter aksentuatsiyasi (anomalligi) va psixopatiya holatlarida ko'proq kuzatiladi. Biroq kuzatishlarimizga qaraganda, deviant xulq har doim ham xarakter anomaliyasi va psixopatiya darajasiga bog'liq holda yuzaga kelmasligining guvohi bo'lamiz. Boshqacha qilib aytganda, xarakter aksentuatsiyasi va psixopatiya holati shaxs xulqida deviantlikning kelib chiqishi uchun har doim ham asosli ta'sir sifatida xizmat qilmaydi. Qachonki, o'smir xarakterida vujudga kelgan aksentuatsiya va psixopatiyaning rivojlanish imkoniyati kuchayishi uchun ijtimoiy muhitda ya'ni, oilada, maktabda, o'rtoqlari davrasida, mahallalarda zaruriy shart-sharoit bo'lsa, xarakter aksentuatsiyasi deviant xulqning kelib chiqishi uchun xizmat qiladi. Ushbulardan kelib chiqib, xarakter anomaliyasi va psixopatiyaning namoyon bo'lish darajasi qachonki yuqori ko'rinishiga ega bo'lsa, ya'ni o'smir xarakterida salbiy o'zgarishlarning va aksentuatsiya darajasining ortib

borishi kuzatilsa, xulq og'ishi kelib chiqadi" degan xulosaga kelish mumkin. [38,39; 23,37-39].

Xulq og'ishining kelib chiqishi irsiyatga bog'liq degan g'oyani ilgari suruvchi ta'limotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu muammoga nisbatan qiziqish keyingi yillarda yanada ortgan. Bu sohada bir-biriga zid bo'lgan qarashlar, mulohazalar, va g'oyalar g'arb matbuotlarida hatto bugungi kunda ham ko'plab uchrab turadi.

Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra, faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi. V.A.Petrovskiyning fikricha, bu o'ziga xos muvofiqlik postulati qabul qilinadigan qoidada ifodalanadi [116;23-b.].

Xulq og'ishining kelib chiqishida biologik omilning o'rnini asosiy omil sifatida talqin qiluvchi ta'limotlarni tahlil qilib aytish mumkinki, xulq og'ishining kelib chiqishida biologik omilning ta'siri qaysidir ma'noda bo'lsa-da, biroq ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, siyosiy omillarning o'rnini mavjudligini qayd etib o'tish mumkin. O'z davrida A.N.Leont'yev ta'kidlaganidek: - "shaxs genotipik jihatdan u yoki bu xususiyatga ega bo'lib tug'ilmaydi, aksincha u ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi, tarkib topadi va faoliyat yuritadi. Shaxs ijtimoiy - tarixiy va ontogenetik taraqqiyot natijasi mahsulidir" Bundan ko'rinadiki, inson tabiatan u yoki bu xislat egasi, jumladan, tarbiyasi og'ir yoki xulq og'ishiga ega bo'lib tug'ilmaydi, aksincha uning ijtimoiy - madaniy xislat va fazilatlarini ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi. Shuning uchun ham xulq og'ishining kelib chiqishida nasliy omilni asosiy omil sifatida qarash noo'rin qarash deyish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi omillarning qaysidir birini asosiy deb qarash g'oyasining o'zi ham noto'g'ridir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy, biologik va psixologik omillar uzviyligi va ularning bir-biriga yaqin bo'lishi, mosligi xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Akademik N.P.Dubininning ta'kidlashicha, zamonaviy insonning ijtimoiy dasturi tashqi muhit ta'siri bilan emas, balki shaxs sifatida shakllanish jarayonining ichki shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Inson tug'ilganda tayyor ijtimoiy dastur bilan tug'ilmaydi. Aksincha, u individual shaxs sifatida tarkib topadi. [50;298-b.].

Shuningdek, insonning ma'naviy shakllanishida hech qanday nasliy belgi xizmat qilmaydi, balki uning psixologik va ma'naviy xususiyatlari kishilar bilan muloqotda ijtimoiy tajribalarni o'rganish

jarayonida tarkib topadi. N.P.Dubininning qarashlariga munosabat bildiradigan bo'lsak, uning bu yo'nalishdagi g'oyalari mazmunida inson tug'ilganda u yoki bu fazilatga, shu jumladan, xulq og'ishiga ega bo'lib tug'ilmaydi, aksincha, inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida ijtimoiy muhit ta'siri ostida turli xil xislatlarga, xususan xulq og'ishiga ega bo'ladi degan ta'limotning yotganligini kuzatamiz. Biologik xususiyatlar esa xulq og'ishining kelib chiqishiga muayyan ma'noda ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo u asosiy omil rolini o'ynamaydi - deydi tadqiqotchi. Shuningdek, tadqiqotchining fikricha, inson qanchalik ma'nan boy, aqlan yetuk bo'lsa, unda xulq og'ishining kelib chiqishi oldi olinadi. Ma'naviy qashshoq, irodasiz, ilmsiz, qat'iy hayotiy maqsad va niyatlari bo'lmagan, ijtimoiy mavqei darajasi past shaxslarda xulq og'ishining paydo bo'lishi oson va tez kechadi. Shuning uchun voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda ularni ma'nan barkamol, yuksak e'tiqodli qilib tarbiyalash muhimdir - deb uqtiradi tadqiqotchi.

Xulq og'ishini o'rganishning yana bir yo'nalishi sotsiologik ta'limot bo'lib, bu ta'limotga ko'ra, xulq og'ishining paydo bo'lishi asosan ijtimoiy muhitdagi omillarga bog'liqdir degan g'oya ilgari suriladi.

O'z davrida xulq og'ishini o'rganishning sotsiologik yo'nalishi bo'yicha bir qator kichik-kichik nazariyalar paydo bo'lgan edi. Ana shunday nazariyalardan biri "omillar nazariyasi" bo'lib, bunga ko'ra, xulq og'ishining kelib chiqishi ijtimoiy turmushdagi bir qator omillarga bog'liqdir, deyiladi. Aynan shu nazariyaga yaqin bo'lgan yana bir nazariya bu "ko'p omillilik" nazariyasidir. Ushbu nazariya asoschilaridan biri Siril Bartning ta'kidlashicha, xulq og'ishining kelib chiqishi juda ko'plab omillarga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O'z davrida xulq og'ishini biologik nuqtai nazardan talqin qiluvchi ta'limotlar xulq og'ishini sotsiologik yo'nalish bo'yicha o'rganuvchi tadqiqotchilar faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Shu boisdan bo'lsa kerak, ayrim sotsiologik yo'nalishdagi tadqiqotchilar xulq og'ishini ijtimoiy sabablar tufayli yuzaga kelishini ta'kidlasalar-da, xulq og'ishiga ega bo'lgan shaxs o'zgarmasdir, u tug'ilganda qanday bo'lsa, umrining oxirigacha shunday bo'lib qoladi - degan noto'g'ri xulosani ilgari suradilar.

Sotsiologik yo'nalishdagi tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, voyaga yetmaganlarda ijtimoiylashuv jarayoni birlamchi guruh oila va ikkilamchi guruh hisoblangan maktab, tengqurlari davrasi va mehnat

faoliyatida kechadi. Ana shu guruhlarning mavqei, ijtimoiy ta'sirchanlik darajasi, ma'naviy va axloqiy ta'sirchanlik darajasiga ko'ra, individ ijobiy yoki salbiy ijtimoiylashuv jarayonini o'z boshidan kechiradi. Ijtimoiy guruhlar ijobiy ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lsa, individda ijobiy ijtimoiylashuv jarayoni kechadi. Aksincha, ijtimoiy guruhlar salbiy ta'sirchanlik kuchiga ega bo'lsa, individda ijtimoiy muhitga nisbatan salbiy ijtimoiylashuv jarayoni yuzaga keladi. Ushbu salbiy ijtimoiylashuv shaxs xulq-atvorida nosog'lom xulqning kelib chiqishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi Cooley (1909)ning fikriga ko'ra, birlamchi guruhda samimiylik, o'zaro hamkorlik, mehr-oqibat mavjud bo'lsa, bu bolaning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatib, shaxsning ijobiy fazilatlari va ideallarining shakllanishiga olib keladi. [55; 89-b.]. Shu boisdan ijtimoiylashuvning oilaviy omili ota-ona va bola munosabatlarining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga ko'ra, bolalarda xulq og'ishining kelib chiqishini belgilashi mumkin.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishida oilada ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning ta'siri masalasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ota-onalarning bolalarga nisbatan mehr va muhabbat, e'tibor, rad etish, nazorat qilish va tartib o'rnatish hamda bolaga erkinlik berish va taqiqlash ko'rinishdagi munosabatlari alohida-alohida holda o'rganiladi. Bunga ko'ra, ota-onaning o'z farzandiga mehr-muhabbat qo'yishi, yuksak e'tiborli bo'lishligi va ayrim vaziyatlarda rad qilish asosidagi munosabati tadqiqotchilar tomonidan shunday izohlanadi.

Ota-onalar ko'pincha bolasining jismoniy, aqliy, ijtimoiy, madaniy va emotsional rivojlanishini hisobga olib, ularning barkamol rivojlanishini ta'minlash maqsadida turli xil psixologik-pedagogik usullardan foydalanishga harakat qiladilar. Biroq, unutmazlik kerakki, ortiqcha erkalash, e'zozlash, rad etish asosidagi tarbiya usuli har doim ham bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, madaniy, hissiy rivojlanishini belgilamaydi. Bunday tarbiya usulida bolalarning qiziqishi, intilishlari hisobga olinmaydi. Ko'pincha, oilada zo'ravonlikka, qattiqqo'llikka asoslangan tarbiya usullaridan foydalaniladi va shu asosda munosabat usuli o'rnatiladi.

Xulq og'ishini sotsiologik omillarga bog'lab talqin qiluvchi tadqiqotchilardan biri V.Ogborn bo'lib, u xulq og'ishini shaxsning ijtimoiy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvi tufayli yuzaga keladi, deb uqtiradi. Shuning uchun u «xulq og'ishi sabablarini ijtimoiy muhitdan

izlash kerakdir» - deydi. Tadqiqotchining ushbu g'oyasini tahlil qiladigan bo'lsak, xulq og'ishi sabablari xulq og'ishiga ega bo'lgan shaxs yashayotgan jamiyatdan, uning oilaviy muhitidan, turmush tarzidan, qurshab olgan muhitidan, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklardan, iqtisodiy qiyinchiliklardan izlash maqsadga muvofiqdir, degan fikr-mulohazaning ilgari surilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, uning ta'limotlarida xulq og'ishining yuzaga kelishi uchun ijtimoiy omillar asosiy o'rin tutadi, degan g'oya ilgari surilsa-da, ammo xulq og'ishiga ega bo'lgan shaxsi va uning ijtimoiy kelib chiqishi, ota-onasi yoki undan oldingi avlodlari kim bo'lganligi, ular yashagan muhitning qandayligi va shu muhitning oiladan-oilaga, ota-onadan bolaga ta'sir etishi xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaning o'rtaga tashlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulq og'ishini o'rganishning psixologik yo'nalishi vakillari o'z ta'limotlarida individni jinoiy harakatga undovchi ehtiyojlar, qiziqishlar va atrof-muhit bilan individ o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan psixik zo'riqishlar, ijtimoiy muhitga, undagi voqea-hodisalarga, ijtimoiy tartib va qoidalarga shaxsning moslasha olmasligi, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risidagi fikr-mulohazalarni ilgari suradilar.

Xulq og'ishini o'rganishning psixologik yo'nalishida Z.Freydning «psixo-analitik» nazariyasi o'z davrida keng ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiboriga tushganligi bilan ajralib turadi. Bu nazariyaga ko'ra, xulq og'ishi shaxsning tabiiy instinktiv mayllariga bog'liqdir - deyiladi. Ya'ni inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchi va jismoniy hayotining mazmunini jinsiy instinkt belgilaydi. SHuning uchun kishining xulq og'ishi xulqi mazmunida ham jinsiy instinkt yotadi deyiladi. [144,145;9-11,108-109].

Z.Freyd o'z tadqiqotlarida xulq og'ishining kelib chiqishini individning «Id», «Ego» va «Super-Ego» rivojlanish bosqichlarida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar orqali tushuntirishga urinishini ko'rishimiz mumkin. Z.Freydning ta'kidlashicha, birinchidan, shaxsning «Id» rivojlanishidagi kamchiliklar «Ego» va «Super-Ego» rivojlanishida nomutanosibliklarni keltirib chiqarsa, «Id» rivojlanishidagi kamchiliklar esa shaxsni instinktiv ehtiyojlar quliga aylantirib qo'yadi. Natijada shaxs xulq og'ishiga undovchi instinktlarni nazorat qila olmaydigan bo'lib qoladi. Oqibatda esa «Ego» va «Super-Ego» «Id»ning hukmi ostida qoladi va u istagan harakatlarni amalga oshirishga majbur bo'ladi.

Ikkinchidan, «Ego» rivojlanishidagi nomuta- nosiblik o'z navbatida individda g'ayriijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi. Kishidagi ushbu g'ayriijtimoiy xulq-atvor xulq og'ishining kelib chiqishi uchun turtki vazifasini o'taydi. Uchinchidan esa, «Super-Ego» rivojlanishida yuzaga kelgan qusurlar, kamchiliklar shaxsda vujudga kelgan xulq og'ishining kelib chiqishiga turtki bo'ladi. «Super-Ego» bosqichidagi barqaror, har tomonlama rivojlanish esa «Id» ning ehtiyoj va talablari qondirilishiga imkoniyat bermaydi. SHu tariqa xulq og'ishining kelib chiqishi shaxsning ongli faoliyati orqali boshqariladi va uning oldi olinadi.

Z. Freydning fikri bo'yicha shaxs «Id» (U), «Ego» (Men) va «Super-Ego» (mendan yuqori) tuzilmalardan tashkil topadi.

Id - instinktning ifodalovchi insonning oddiy va sodda tuzilmasidir. Kishidagi ongsiz, sodda «Id» tuzilmasi ehtiyojlarni qondirish tuzilmasidir. «Id» talablarini bajarishga majbur bo'lgan «Ego» instinkt buyrug'ini bajaruvchi bo'lib qoladi. Natijada «Id» ehtiyojiga ko'ra, xulq og'ishi kelib chiqadi.

«Super-Ego» kishilarda ma'naviy-madaniy va axloqiy sifatlarni ifodalovchi tuzilmadir. U kishining biror-bir xatti-harakatni bajarishdan oldin uni o'ylab ko'rish, oqibatlarini anglab yetish xususiyatini belgilaydi. Bu nazariyaga ko'ra, insonda «Id»ning xohish- istaklari to'siqlarga, qarshiliklarga uchramasa va bu xohish, istaklar nazorat qilinmasa, kishida turli xil xulq buzilishlari kelib chiqadi. Insonning «Id» rivojlanishida yuzaga keladigan nuqsonlar kishini tajovuzkor, badjahl qilib qo'ysa, ba'zan kishida individual psixofiziologik xususiyatga ko'ra passiv, xayolchan, tortinchoq, mustaqil faoliyat yuritishning yetishmasligi kabi sifatlarni namoyon qiladi. Faollikning yetishmasligi kishini ko'pincha ehtiyoj quliga aylantirib, bee'tibor qilib qo'yadi. Natijada kishi o'ylamay, oqibatlarini anglab yetmagan holda noqonuniy harakatlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

Z.Freydning ta'kidlashicha, shaxs «Id», «Ego», «Super-Ego» rivojlanish bosqichlar- ining qay birida bo'lmasin paydo bo'ladigan nuqson, yetishmovchilik, o'zgarish va psixik asorat uning xulq-atvoridagi og'ishni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, deydi u: «Ota-onaning o'z tashvishlari bilan bo'lib, bolaning «Id» rivojlanishida e'tiborsizlikka berilishi, xususan, unga mehr-muhabbat bermasligi, tarbiyada e'tiborsiz bo'lishlik holati bolaning «Super-Ego» rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda bola «Super-Ego» emas, «Id» tuzilmasi hukmronligi ostida qoladi. Bunday holatda individ o'z ehtiyojini qondirish orqasidan quvib, o'zining yuksak insoniylik

sifatlarini, ya'ni mehr-oqibat, vijdon, iymon-e'tiqod, sadoqatlilik, mehr-muruvvatlilik kabi xislatlarini rivojlantirish bilan qiziqmaydi. [144;74-78-b.].

Xulq og'ishini psixologik yo'nalishda tadqiq qilishga qaratilgan ta'limotlardan yana biri xulq og'ishi individning biologik tuzilmasi hamda u olgan ta'lim-tarbiyaning o'zaro mosligi va ta'siri natijasida yuzaga keladi degan g'oyadir.

Bu ta'limotga ko'ra, bolaga beriladigan tanbeh va rag'batlantirishlar xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir etishi mumkinligi masalasi ochib berishga harakat qilinadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotchilarning ta'kidlash-laricha, bola qandaydir noqonuniy xatti-harakatni bajarganda unga oilada o'z vaqtida tanbeh berilsa, tushuntirilsa, bu keyingi g'ayriqonuniy xatti-harakatlar takrorlanishining oldini olishda shartli ta'sir rolini o'ynaydi. Bunday ta'sirlar bolada noqonuniy xatti-harakatlarni bajarmaslik uchun shartli reaksiyani paydo qiladi. Boshqacha aytganda, bola biror bir g'ayriqonuniy xatti-harakati uchun jazo olsa, bu jazo keyingi marta yana shunday g'ayriqonuniy harakatni amalga oshirmaslik uchun shartli avtomatik reaksiya sifatida xizmat qiladi, degan g'oya ilgari suriladi. Ushbu ta'limot vakillaridan biri Eysenck ning fikriga ko'ra, o'smirda biror bir voqea-hodisaga, vaziyatlarga va faoliyatga nisbatan shartli reaksiya ko'rinishidagi bog'lanish va ayrim holatlarda shartli bog'lanishga nisbatan tashqi qarshilik, to'sqinlikning yuzaga kelishi xulq og'ishining kelib chiqishiga olib keladi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini psixologik yo'nalishda tadqiq qilishga harakat qilgan nazariyalardan yana biri «ijtimoiy o'rganish yoki taqlid qilish» nazariyasidir. Bu nazariyaning asoschilari hisoblangan Bundura va Walters lar o'z tadqiqotlarida bolalarning o'z hayotida nimani va qanday voqea-hodisalarni, holatlarni, shu jumladan, g'ayriqonuniy harakatlarni o'z ko'zlari bilan ko'rishlari ularning unga moslashib, o'rganib qolishlariga olib keladi degan g'oyani ilgari suradi. Ularning fikricha, bola xulqi og'ishgan bilan birga bo'lsa, uning faoliyatini o'z ko'zlari bilan kuzatsa, unga o'rganib, erta-indin u ham aynan shunday harakatlarni takrorlashi mumkin bo'ladi. Bu nazariyaga ko'ra, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi yoki uning oldini oluvchi omil jazo va mukofotdir deyiladi. Bunga ko'ra, bola tomonidan amalga oshirilgan muayyan noqonuniy xatti-harakat ota-ona yoki atrofdagilar tomonidan qo'llab-quvvatlansa, rag'batlantirilsa, jinoiy harakatlarning yana takrorlanishi ehtimoli oshadi. Aksincha, bolaning

jazolanishi esa ular tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlarning qayta takrorlanish ehtimolini pasaytiradi deb ko'rsatiladi.

Ayrim tadqiqotchilar o'smirlarning agressivlik faoliyati rag'batlantirilgan holatlarni bolalarning ko'rishi ularda tajovuzkorona faoliyatga nisbatan intilishni keltirib chiqaradi deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, kattalarning tajovuzkorona faoliyati jazolangan holatlar ham ba'zan bolalarda tajovuzkorona faoliyatga taqlid qilish istagini yuzaga keltirishi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, boshqalarning harakatlari nafaqat rag'batlantirilganda, balki jazolanganda ham bolada tajovuzkorlik faoliyati yuzaga kelishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ushbu nazariyada aniqlik, muayyan qat'iy fikr, xulosa yetishmaydi. Shuning uchun ham bu singari nazariyalar keng ilmiy jamoatchilik nazariga tushmay qolgan edi.

Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bolalar ayrim modellarga boshqalarga qaraganda ko'proq taqlid qiladilar. Masalan, o'zlariga mukofot beruvchi, kuchli, omadli va hurmat-e'tiborga ega bo'lgan hamda tez-tez ko'rishib turadigan kishilarga ko'proq taqlid qiladilar. Bu xususiyatlar farzandlar hayotining dastlabki yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular bu davrda bolalari uchun taqlid qilish modeli bo'lib xizmat qiladilar. Oilada ota-onalar bolalarga har tomonlama stimullar beruvchi manba va taqlid qilish ob'yekti bo'lib xizmat qilishligi tufayli ular bir-biriga va farzandlariga qanday munosabat ko'rsatishlariga ko'ra, farzandlarining kelajakda tajovuzkorona fe'l-atvoriga ega bo'lishliklarini belgilab beradilar.

Xulq og'ishini o'rganishning psixologik nazariyalaridan yana biri «kognitiv–genetik» nazariyadir. Bu ta'limot tarafdorlarining fikriga ko'ra, «shaxsning rivojlanishi uning ehtiyojlariga bog'liq tarzda kechishligi tushuntirilib, ushbu rivojlanish bir qator bosqichlarni o'taydi - deyiladi».

Bu bosqichlar rivojlanish jarayonini kechirayotgan individ boshqa bir individdan jismoniy va aqliy jihatdan andoza olish, yangi-yangi o'rtoqlik va do'stlik munosabatlarini o'rnatish, ota-onasidan mustaqil bo'lish, muayyan kasbni tanlash, intellektual malakalarni tarkib toptirish, har tomonlama yetuk fuqaro sifatida shakllanish uchun zaruriy ko'nikma va malakalarni, ijtimoiy tartib va qoidalarga to'g'ri keladigan fe'l-atvorni shakllantirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirish va boshqalardan iboratdir. Bolaning rivojlanish ehtiyoji qondirilmasligi, ya'ni yuqoridagi vazifalarning uddalanilmasligi bolada turli xil

muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlar bolaning fe'l-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, kishilar va o'rtoqlari bilan o'zaro nizoli vaziyatlarga borishga sabab bo'ladi. Rivojlanish ehtiyoji qondirilmagan bola yoki o'smir chegaralanishlarni qo'llovchi, nazorat qiluvchi, tartib va intizomni talab qiluvchi katta kishidan o'zini olib qochadi. Bu uzoqlashish bolaning turli xil noaxloqiy guruhlarga qo'shilishiga va oqibatda xulq og'ishining kelib chiqishi yuzaga keladi.

Tadqiqotchi V.Djemsning fikriga ko'ra, shaxsning o'zligi, ya'ni uning individual-psixologik xususiyatlari hamda tashqi muhitning insonga o'ziga xos tarzda ta'sir etishi natijasida xulq og'ishi kelib chiqadi. Shuningdek, uning ta'kidlashicha, inson nimani o'zinniki, menga tegishli deb tasavvur qilsa, ya'ni o'zining tanasini, ruhiy olamini, oila-a'zolarini o'zinniki deb qabul qilishi unda o'zlikning shakllanishidan dalolatdir. O'zlikning, o'z xatti-harakatlari oqibati va mazmunining anglanmasligi kishida o'zi tomonidan amalga oshirilayotgan noqonuniy harakatlar mazmun va oqibatini tushunib yetmaslikni yuzaga keltiradi. Natijada shaxs o'z xatti-harakatini qonuniy yoki noqonuniyligini anglab yetmagan holda qonunbuzarlik harakatlarni sodir etadi. Bu ayniqsa voyaga yetmaganlarda ko'proq uchrab turadi.

Amerikalik tadqiqotchi E.Bogardus xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi omillarning uch xil ko'rinishini ko'rsatib o'tadi.

1.Jismoniy tazyiq o'tkazish.

2.Ijtimoiy muhit ta'siri.

3.Individning ijtimoiy va jismoniy ta'sirga munosabati sifatidagi reaksiyasi.

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra esa, shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kishi xulq- atvori va shaxs sifatida shakllanishini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy muhit shaxs shakllanishida shart-sharoit vazifasini bajaradi. Ushbu shart-sharoitning qandayligi kishi fe'l-atvori xususiyatining ijtimoiy mohiyatini belgilaydi.

Biroq ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zi shaxs psixik xususiyatlarining rivojlanishi uchun yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ijtimoiy muhitdagi ayrim ta'sirlarni alohida holda emas, balki sub'yektning psixologik xususiyatlari hamkorligidagi ta'siri natijasida shaxs taraqqiyoti yuzaga keladi, deb tushunmoq kerak. Ya'ni, ijtimoiy muhitdagi ayrim voqea-hodisalar shaxs rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ayrimlari salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vaziyatda individning o'ziga xos psixologik xususiyatlari ijtimoiy muhit ta'siri bilan o'zaro

mos kelishi natijasida kishi xulqida o'zgarish yuzaga keladi. Shu tariqa nosog'lom ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta'sir etishi asosida xulq og'ishi kelib chiqadi, deyiladi.

Ma'lumki, maktab bolalar uchun ilk bor o'z-o'zini anglash, ilmiy bilish va dunyoqarashni shakllantiruvchi ijtimoiy tizim bo'lib hisoblanadi. Maktab - ijtimoiy qoidalar, tartib va me'yorlar, qadriyatlarning shakllanishiga, boshqacha qilib aytganda, bolaning ijtimoiylashuviga katta yordam beradi. Maktabning bola hayotidagi muhim jihatlaridan yana biri tengqurlari bilan birgalikda faoliyat yuritishi, hamkorlik va mehnat taqsimotiga o'rganish, o'zgalarning haququqlari va mehnatini e'zozlash, kishilarni hurmat qilish, o'zaro muloqot, ijtimoiy mavqei kabi xislatlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishidir. Tengqurlari bilan guruhiy asosda faoliyat yuritish bolaning o'z-o'ziga nisbatan ishonch hissini orttirib, ijobiy va salbiy xislatlarni baholash va ularni bir-biridan farqlash imkoniyatini beradi.

O'tgan asrning 70-80 yillariga kelib, Sobiq Ittifoq miqyosida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilishga kirishila boshlandi. Bu yo'nalishdagi olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijasi sifatida monografiya va risolalar, ilmiy maqolalar nashr ettirilgan. Z.A.Astemirov, M.M.Babayev, G.G.Bochkareva, K.X.Igoshev, B.YA.Petelin, G.M.Min'kovskiy, D.I.Fel'dshteyn, A.M.Gobechiya, A.I.Dolgova, S.A.Tararuxin va boshqalarning bu sohadagi ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular o'z tadqiqotlarida xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxs va individual-psixologik xususiyatlari, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillar, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining sabab va motivlari, ijtimoiy muhitning xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'siri kabi masalalarni ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladilar. [18;4-11,59;448, 147;237].

Bir qator tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, g'ayriqonuniy xulqni keltirib chiqaruvchi sabablar o'smir o'sayotgan mikromuhit nosog'lomligi, uning o'ziga xos kamchiliklarga egaligi hamda o'smir shaxsining individual-psixologik xususiyatlariga bog'liqdir.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi muammosi bo'yicha bir qadar muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri M.A.Alemaskin hisoblanadi. U o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining ob'yektiv va sub'yektiv omillarini tahlil qilishga harakat qiladi. Uning yozishicha: "O'smirning nima uchun qonunbuzar

bo'lib qolganligini anglab yetish uchun eng avvalo uni qurshab olgan ijtimoiy muhit, shart-sharoit va uning o'smir shaxsiga qanday ta'sir etayotganligini tahlil qilish lozim bo'ladi: ichki psixologik sabablar, salbiy shaxs sifatleri, qat'iy hayotiy maqsadlarning mavjud emasligi, nosog'lom tashqi muhit va oilaviy tarbiya muhiti o'zaro bir-biriga mos tushsa, o'smirda jinoyatchilik xulqining shakllanishiga qulay imkoniyat yaratiladi.

O'z davrida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishi va tarbiyasi og'ir o'smirlarning paydo bo'lishi xususida atoqli psixolog olim L.S.Vigotskiy juda to'g'ri fikrni bayon etgan edi. Bunga ko'ra, "tarbiyasi qiyin o'smir shaxsi tuzilishining murakkabligi tabiiy ravishda berilmaydi, aksincha ular ijtimoiy turmush voqea-hodisalari, shaxslararo munosabatlar nosog'lomligidan kelib chiqadi. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi nizolar, ta'lim-tarbiya tizimida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar tarbiyasi qiyin o'smirlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi".

F.I.Gobechiyaning ta'kidlashicha, maktab bola shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolaning oilaviy sabablar tufayli maktabga tez-tez bormay qolishi uni maktabdan bezdiradi. O'qishdan ko'nglini sovitadi. Uning ustiga bunday paytlarda o'qituvchilarning noto'g'ri muomala munosabat usullarini qo'llashligi bolaning butunlay maktabdan ko'nglini qoldiradi. Natijada bola yaxshi o'qimaydi, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi tushib ketadi. Xullas, bolaning intellektual salohiyatining pasayishiga olib keladi. Aqliy salohiyatning pasayishi esa voyaga yetmaganlarda muammoli vaziyatlardan chiqib ketish va bunday vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilish layoqatini izdan chiqaradi. Natijada bunday bolalar muammoli vaziyatlarda g'ayriqonuniy qarorlar qabul qilishlari holatini kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqotchi T.I.Korotkova voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining psixologik mexanizmlari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga harakat qiladi va voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi motivlarini quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rsatadi:

Yosh davri xususiyatlariga xos bo'lgan jismoniy faollikning oshishi (har narsani urush- janjalga taqash).

Salbiy xarakterga ega bo'lgan vaziyatli hissiy kechinmalar va shu kechinmalarga bog'liq holda namoyon bo'ladigan va uning yo'qolishi bilan barham topadigan holatlar.

Salbiy hayotiy sharoitlarning uzoq muddatli ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladigan salbiy kechinmalar.

G'ayri ijtimoiy xulqning psixologik manbalari sifatida tadqiqotchi voyaga yetmaganlarda irodaviy va axloqiy sifatlarning qat'iy shakllanmaganligi tufayli o'zlarining hissiyotini jilovlay olmasliklarini keltirib o'tadi.

Shaxsning og'ishgan xulqi turlicha ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladi. Jamoatchilik ta'siri, huquqiy qonunlar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy ko'mak va psixologik yordam xarakterini olishi mumkin. Axloqiy buzulish murakkab xarakteri kuchida ularni ogohlantirish va bartaraf etish yaxshi uyushtirilgan ishtimoiy ta'sirlar tizimi talab qiladi.

Psixologik yordam ko'rib chiqilayotgan tizim boshqaruv bosqichlaridan biri sifatida unda boshlovchi rol o'ynaydi va aniq ko'rinib turgan gumanistik yo'nalganligi bilan farqlanadi. Bu fakt psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o'z hayoti uchun masuliyatni qabul qilish, o'zaro ishonch, qo'llab quvvatlash, shaxs va induviduallikni hurmatlash kabi tamoyillarida o'z aksini topdi.

Psixologik yordam ikkita yetakchi yo'nalishga ega. Bu psixologik prevensiya (ogohlantirish, psixoprofilaktiv) va psixologik intervensiya (bartaraf etish, korreksiya, reabilitasiya) psixotashhis qoidadagiday ishning mustaqil yo'nalishi hisoblanmaydi va psixologik yordamning maqsadi bo'lmasligi zarur. Bu faoliyatning yordamchi turi muhim, biroq majburiy emas, hal qiluvchi oraliq amaliy vazifa.

Psixologik yordamning ikki asosiy turini ko'rib chiqamiz.

Og'ishgan axloq profilaktikasining ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko'zda tutadi. Umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy sanitar, pedagogik, ijtimoiy-psoxologik. Muvaffaqiyatli profilaktiv ishning shartlari uning majmuaviyligi, ketma-ketligi, differensialligi, o'z vaqtidaliligidir. Oxirgi shart faol shakllanayotgan shaxs, masalan o'smirlar bilan ishlashda, ayniqsa muhim shuning uchun tadqiqotimizda og'ishgan axloqning psixologik prevensiyasini aynan o'smir yoshdagilar misolida ko'rib chiqamiz.

BSST (butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti) birlamchi va ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani ajratishni taklif qiladi. Birlamchi profilaktika muayyan ko'rinishni chaqiruvchini nohush omillarni bartaraf etishga, shuningdek shaxsning bu omillar ta'siriga chidamliligini ko'tarishga yo'naltirilgan. Birlamchi profilaktika o'smirlar o'rtasida keng olib borilishi mumkin. Ikkilamchi

profilaktikaning vazifasi asabiy psixik buzilishlarni erta aniqlash va reabilitasiya qilish hamda hatar guruhidagilar bilan masalan hozirgi vaqtda bu namoyish etilmagan bo'lmasada og'ishgan axloqqa aniq ko'rinib turgan moyilligi bo'lgan o'smirlar bilan ishlash. Uchlamchi profilaktika axloq buzilishi bilan birga boradigan asabiy psixik buzilishlarni davolashdek maxsus vazifalarni hal qiladi. Uchlamchi profilaktika shakllangan deviant axloqni shaxslarda residivni ogohlantirishga yo'naltirilgan.

Psixoprofilaktik ish barcha uch bosqichning tadbirlar majmuasiga kirishi mumkin. Hisoblanadiki u muammoning paydo bo'lishidagi ilk bosqichlaridan deviant axloqni chaqiruvchi shart va sabablar ta'siri shaklida bimuncha samaralidir.²³

Psixoprofilaktik ishlarning turlicha shakllarini ko'rib chiqaylik.

1-shakl ijtimoiy muhitni tashkil etish. Uning asosida deviasiyaning shakllanishida atrofdagi muhitning determinasiyalanuvchi ta'siri haqidagi tasavvurlar yotadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir ko'rsatib shaxsning istalmagan axloqi oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Masalan og'ishgan axloqqa munosabat bo'yicha jamoatchilikning salbiy fikrini yaratish orqali ish obyektini shuningdek oila ijtimoiy guruh (maktab, sinf) yoki aniq shaxs bo'lishi mumkin. Ushbu model doirasida tobe axloq profilaktikasi o'smirlarda dastavval sog'lom turmush tarzi va sergaklikga ko'rsatmani shakllantirish bo'yicha ijtimoiy cheklanmadan iborat. Ommaviy axborot vositalari siyosati alohida ahamiyatga ega. Maxsus dasturlar, yoshlar suyuqlilarining chiqishlari, maxsus tanlangan kinofilmlar, bularning barchasi hozirgi vaqtda kuzatilayotganiga qaraganda boshqa sifatli darajaga ega.

Yoshlar submadaniyati bilan ishlash, yoshlar giyohvandlikga qarshi harakati yoki ommaviy rok guruhlarning chiqishlari bilan shu nomdagi aksiya shaklida tashkil etilgan bo'lishi mumkin.

Yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ishlash muhimdir. Masalan, diskotekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo'lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo'qotish bilan bog'liq kechinmalar va tragedik taqdirlar haqida bilib olishlari mumkin. O'smirlar bilan ishlash shuningdek ko'chada tashkil etilishi mumkin.

²³ G'.To'lqanov. Deviant xulqli o'smirlar psixologiyasi. Toshkent. 2016 yil.

Qator davlatlarda tegishli ishlarni olib borish uchun o'smirlar sardorini tayyorlash mumkin. Shuningdek ushbu yondashuv doirasida istalmagan axloq bilan qo'shilmaydigan sharoit va ko'maklashuvchi va "zo'nalarni" yaratishga urunish qo'llanilmoqda. Modelning asosiy kamchiligi ijtimoiy omillar va og'ishgan axloq o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikning yo'qligi hisoblanadi. Umuman olganda ushbu yondashuv yetarlicha samarador bo'lib ko'rinadi.

Psixoprofilaktiv ishlarining ikkilamchi shakli – habardor qilishdir. Bu biz uchun bir necha odatiy psixoprofilaktiv ishini olib borishning ma'ruza, suhbat, adabiyotlar, yoki video va telefilmlarni tarqatish shaklidagi ko'rinishni, buning uchun odatda statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga halokatli ta'siri haqidagi axborotlardan keng foydalaniladi.

Ko'pincha axborot qo'rqituvchi harakterga ega, bunda giyohvand moddalarning iste'mol qilishning salbiy oqibatlari sanab o'tiladi yoki deviantlarning dramatik taqdiri ularning shaxsiy dekradasiyasi yoritib beriladi. Bu usul tadqiqotlarda haqiqatan ham bilimni kuchaytirishi aniqlangan, ammo axloqni o'zgartirishga yomon ta'sir ko'rsatadi.

O'z-o'zidan habardor qilish deviatsiya darajasini pasaytirmaydi. Ba'zi hollarda, aksincha, deviatsiya bilan erta tanishuv unga qiziqishni kuchaytirishi aniqlandi. Cho'chitish ham axloqning ushbu turini motivasiyalovchi kognitiv hissiy dissonans uyg'otishi mumkin. Qator hollarda axborot o'z vaqtida berilmaydi.

O'ta kech yoki o'ta erta masalan, o'smirlar bilan ishlash jarayonida kuzatishlarimizga ko'ra giyohvand moddalarga tobe bo'luvchi axloqni ogohlantirish bo'yicha suhbatlar 14 yoshdan kech bo'lmaganda olib borilishi lozim. Ular giyohvand moddalar va ular keltirib chiqaruvchi kuchli ta'sirni batafsil yaratishdan iborat bo'lmasligi darkor. Bunday suhbatlar deviant axloq va undan saqlanish usullarining oqibatlarini muhokama qilishga faol shaxsiy nuqtai nazarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.²⁴

Psixoprofilaktiv ishning uchinchi shakli – ijtimoiy-muhim malakalarga faol ijtimoiy o'rgatishdir. Ushbu model ko'pincha guruhli treninglar shaklida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda quyidagi shakllari tarqalgan.

1. Salbiy ijtimoiy ta'sirga rezistentlik (maxkamlik) treningi. Trening davomida deviant axloqqa ko'rsatmalar o'zgaradi, reklamali

²⁴ Yoshlarga psixologik konsultatsiya berish. L.Kazakov "Yoshlarnashriyot uyi" Toshkent 2018 yil.

strategiyani tanib olish malakasi shakllanadi, tengdoshlari bosim o'tkazganida “yo'q” deya olish layoqati rivojlanadi. Ota-onalar va boshqa kattalarning (masalan, ichkilik iste'mol qiluvchi) salbiy ta'sir ehtimoli haqida ahborot beriladi.

2. Assertivlik yoki affektiv qadriyatli ta'lim treningi. Deviant axloq bevosita hissiy buzilish bilan bog'liq degan tasavvurga asoslangan. O'smirlarni ushbu muammolardan odindan habar berish uchun hissiyotlarni tanish, ularni maqbul obrazda ifodalash va stressni mahsuldor uddalashga o'rgatiladi. Guruhli psixologik ish davomida qaror qabul qilish malakasi shakllanadi, o'z-o'zini baholash ko'tariladi, o'z-o'zini aniqlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni rag'batlantiriladi.

1.2. Xulqi og'ishgan o'smirlar muammosining O'zbekiston psixologlari tomonidan o'rganilishi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonda voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini ilmiy o'rganish bo'yicha boshqa fanlar singari psixologik yo'nalishda ham salmoqli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarda voyaga yetmaganlarda yuzaga kelayotgan xulq og'ishi holatlarining ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik va individual-psixologik omillari hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar shaxs psixologiyasi, assotsial xulq, xulq og'ishi kelib chiqishining sabab va motivlari hamda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishini oldini olish borasida bir qator muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilinadi.

Ana shunday tadqiqotlar orasida professor E.G'oziyev izlanishlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Tadqiqotchi o'z tadqiqotlarida tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi, tarbiyasi qiyin bolalarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillar hamda tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashning psixologik masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Olimning ta'kidlashicha, tarbiyasi qiyin o'smirlar nosog'lom ijtimoiy –psixologik muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablarga ko'ra ham shakllanadi.

E.G'oziyev o'z tadqiqotlari natijalariga asoslanib, tarbiyasi qiyin o'smirlar tipologiyasini tuzishga harakat qiladi va tarbiyasi qiyin o'smirlarni to'rt guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi.

Birinchi guruhni balog'atga yetmagan andishasiz, qaysar o'smirlar tashkil qilsa, **ikkinchi guruhga**, subutsiz, beqaror, mustaqil

fikrga ega bo'lmagan o'smirlar kiritiladi. **Uchinchi guruhni** esa o'ziga xos psixik xususiyatlarga, hissiy kechinmalarga ega bo'lgan o'smirlar tashkil qiladi. **To'rtinchi guruhga** affektiv kechinmali o'smirlar kiradi. Ushbu guruhlarining individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'smirlarda xulq og'ishi kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan o'ziga xos profilaktik ishlarni olib borish zarur, deb ta'kidlaydi tadqiqotchi.

E.G'oziyev tadqiqotlarini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan profilaktik ishlarni olib borishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik qonuniyatlarga ham murojaat qilish zarurligi masalasi Respublikamizda o'tgan asrning 70-80 yillaridayoq tadqiqotchi tomonidan ko'tarib chiqilganligining guvohi bo'lamiz.

Professor G'.B.Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog'lom psixologik muhitning bola xulq-atvoriga ta'siri, xulq og'ishining kelib chiqishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ruhiy tanglik va affektiv holatlarning voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'siri masalasi batafsil yoritishga harakat qilinadi.

G'.B.Shoumarovning ta'kidlashicha, oiladagi nosog'lom-psixologik muhit nafaqat er-xotin o'rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Shuningdek, oilada ota-onalarning o'z hayot va tashvishlari bilan bo'lib, bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirmaslik, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik rolining pasayishi, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko'rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvoriga ega bo'lishlari va boshqalar voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga xizmat qiladi.

Xulq og'ishi muammosining ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik va psixopatologik muammolari bo'yicha respublikamiz olimlari o'z tadqiqot ob'yekti doirasida o'rganganlar. Xususan, respublikamiz faylasuflaridan X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari), sotsiolog M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari), huquqshunoslar A.Kulahmetov, Y.Karakterov, M.Usmonaliyev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatchiligi masalalari), psixolog olimlardan E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov,

S.A.Axunjonova, G.T.Tulaganova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (suitsidal va xulq og'ishgining ijtimoiy-psixologik omillari), pedagog-olimlardan O.Musurmonova, D.J. Sharipovlarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin. [52,53,66,67,105,109,110,135,139].

Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va uni oldini olish muammosini tadqiq qilish borasida barcha xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari singari Respublikamizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillari xulq og'ishining demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama tahlil qilishga harakat qilinadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriaxloqiy xulq muammosini ilmiy tadqiq qilish masalasiga e'tibor mustaqillik yillarida yanada oshdi. Qolaversa, keyingi yillarda yurtimizda voyaga yetmaganlar o'rtasida turli xil qonunbuzarlik holatlarining ortib borayotganligi keng ilmiy jamoatchilikni bu muammo bilan yanada jiddiyroq shug'ullanishga undadi. SHu boisdan respublikamizda keyingi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida g'ayriaxloqiy xulq muammosini ilmiy tadqiq etish borasida muayyan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi.

B.A.Ahmedov, Z.S.Zaripov kabi kriminalist olimlarning tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishida ijtimoiy muhitning ta'siri, oilaviy munosabatlardagi nosog'lom muhitning voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi keltirib chiqarishdagi o'rni, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining iqtisodiy, hududiy, statistik, shahar va qishloq joylarida sodir etilish sabablari to'g'risidagi masalalar tahlil qilishga harakat qilinadi.

Xususan, tadqiqotchi B.A.Ahmedovning ta'kidlashicha, oiladagi kriminogen muhit, oilaviy o'zaro janjallar, ota-onalarning bolalar tarbiyasiga e'tibor bermasliklari, bolalarning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganligini ota-onalar yoki kattalar tomonidan nazorat qilmaslik holatlari voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga olib keladi. Shuningdek, tadqiqotchining ta'kidlashicha, oilada ota-onaning spirtli ichimlikka ruju qo'yishi, bolalar ko'z o'ngida noaxloqiy xatti-

harakatlari ham voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kriminalist tadqiqotchilardan N.Raximov, Q.Abdurasulova, Y.Karakterov, I.Yusupov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining oldini olish masalalari tadqiq qilinadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini tadqiq qilishning pedagogik yo'nalishi bo'yicha o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqish sabablari oiladagi tarbiyaga, ota-onalarning farzandlar tarbiyasida noto'g'ri tarbiya usullaridan foydalanish-liklariga, oilaviy tarbiyadagi nuqsonlarga, ijtimoiy muhitga, jumladan, maktab, mahalla, tengqurlari davrasida nosog'lom muhitning mavjudligiga bog'liqdir - degan fikr-mulohazalarning o'rtaga tashlanganligini ko'ramiz.

A.I.Ostrovskiy uzoq yillar mobaynida Respublikamiz maktab o'quvchilari o'rtasida xulq og'ishi kelib chiqish sabablarini tahlil qilib, ularning oldini olish borasida ilmiy izlanishlar olib boradi. Ushbu ilmiy tadqiqotlari natijasi sifatida bir qator risolalar, monografiyalar, uslubiy qo'llanmalar va tavsiyanomalar tayyorlashga erishadi.

Tadqiqotchining bu sohadagi ilmiy qarashlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, unda xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smir shaxsi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir normal darajada va tabiiy holatda kechsa, ijtimoiy muhitdan bola salbiy ko'rinishdagi aks ta'sirni olmaydi. Aksincha, ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlik bolalar xulqidagi noaxloqiy xislatlarning shakllanishiga olib keladi degan g'oyaning ilgari surilganligini kuzatamiz. Bundan ko'rinadiki, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining shakllanishi va uning oldini olishda ijtimoiy muhitning qay darajada ijobiy tarbiyaviy ta'sirga ega ekanligi katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shu ko'rinishdagi mulohazani tadqiqotchi H.Yo'ldoshev tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. U o'z tadqiqotlarida mikromuhitdan tashqarida ijtimoiy borliq deb nomlanadigan ijtimoiy muhit mavjudligini va u bolalar shaxsiga biz xohlasak, xohlamasak ham u yoki bu ko'rinishda ta'sir etishi va uning qandayligiga qarab voyaga yetmaganlar shaxsida xulq og'ishining yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

H.Yo'ldoshev o'zining ilmiy izlanishlari natijalariga asoslanib, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini oldini olishda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilikni voyaga yetmaganlar shaxsi psixologiyasi xususidagi bilim va malakalar bilan qurollantirish orqali tarbiyasi qiyin

o'smirlarning yuzaga kelishini oldini olishda xalq ta'lim tizimida psixologik xizmatni keng miqyosda joriy etish va uning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston ijtimoiy psixologiya fanida ijtimoiy-psixologik muammolar, shu jumladan, yoshlar tarbiyasi, ularning shaxs sifatida shakllanishi, xulq-atvor sog'lomligi masalasida qimmatli fikr-mulohazalar yuritgan tadqiqotchilardan biri professor V.M.Karimova bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotchi o'z tadqiqotlarida yoshlarning ilmiy, ma'rifatli, sog'lom ruhiyatli bo'lib voyaga yetishlarida jamiyatdagi, oiladagi sog'lom psixologik muhit asosiy hisoblanadi, deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi Z.F.Kamoletdinova yuqori sinf o'quvchilarida xulq og'ishining motivatsion asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Tadqiqotchi deviant xulqli o'smirlarning motivatsion xususiyatlarini o'rganish natijalariga asoslanib, deviant xulqli o'smirlarni ikki xil guruhga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi. Birinchi guruhga shaxsida salbiy xususiyatlar mavjud bo'lgan, arzimagan yo'qotishlar va qiyinchiliklar oldida tiz cho'kadigan, irodasiz, hatto ba'zan o'z joniga qasd qilishgacha boradigan o'smirlar kiritiladi. Bundaylar ijtimoiy me'yorlarga, tartib va qoidalarga bo'ysunuvchi bo'ladilar. Ikkinchi guruhni esa salbiy xulqli ijtimoiy tartib va qoidalarga itoat etmaydigan, kichik-kichik qonunbuzarlikni bir necha marotaba amalga oshirishga uringan qaysar o'smirlar tashkil etadi.

Tadqiqotchining ilmiy izlanishlaridan olingan xulosalaridan ma'lum bo'lishicha, oilaviy munosabatlardagi nosog'lom muhit, otionalarning bolalarga nisbatan avtoritar munosabatda bo'lishlari, otionalik mehr-muhabbatini bolalarga bera olmasliklari, maktab o'qituvchilarining noo'rin va adolatsiz munosabatlari, fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va boshqalar o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Professor B.M.Umarov o'z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillarni va voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar hamda amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

G.Q.To'laganova o'z tadqiqotida o'smirlarda tarbiyasi qiyinlikni keltirib chiqaruvchi sabablari sifatida biologik nuqsonlar, psixik kamolotidagi kamchiliklar, shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar, bilim olish faoliyatidagi kamchiliklar, oiladagi nizolar va psixopotologik ojizliklarni sanab o'tadi.

N.G'.Kamilova xulqi og'ishgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalar tarbiyalanuv- chilarining moslashuvi va resotsializatsiyasi bosqichlari, darajalari, tarbiyalanuvchilarda moslashish mexanizmlarini haqida batafsil to'xtalib o'tgan.

N.A.Sog'inov tadqiqotlarida oilalarda milliy qadriyatlardan foydalanishning, ijtimoiy nazorat va ota-onalar shaxsiy javobgarligining pasayishi bolalar xulqida ijtimoiy og'ishlarning namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkinligi masalasi ta'kidlanadi. Muallif buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir" – deb ta'kidlagan murojaatini ilmiy tahlil qilib, oilaviy munosabatlar, ayniqsa ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlarida yaqin o'tgan 80-100 yillar oldin va hozirgi o'zbek oilalarida kuzatilayotgan an'analarni taqqoslar ekan, xalqimizning azaliy qadriyatlaridan bolalar tarbiyasi, bola shaxsi shakllanishida o'rinli foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ta'kidlaydi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish natijalariga asoslanib, xulosa qilish mumkinki, xulq og'ishi muammosini o'rganish ishlari bir qator, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, kriminalistik, sotsiologik, psixologik, pedagogik yo'nalishlarda olib borilganligi kuzatiladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlarning ayrimlarida xulq og'ishi muammosiga bir yoqlama yondashilganligi tufayli ular o'z davrida tanqidga uchraydi. Ayrim ilmiy tadqiqotlar esa o'zining tor yo'nalishni qamrab olganligi tufayli jinoyatchilik hodisasini har tomonlama ilmiy jihatdan asoslab berish vazifasini uddalay olmaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu yo'nalishdagi izlanishlar xulq og'ishi muammosini ilmiy jihatdan o'rganishda o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar shakllanishining yana bir asosiy omili bu o'smirlarning shaxsiy psixologik xususiyatlaridir:

1. Sangvinik temperamentdagi o'smirlarda his-tuyg'ular tashqi ko'rinishda yorqin ifodalangan bo'ladi: Ma'noli mimika, aniq imo-ishora, tez harakat qilish, tez gapirish, beqarorlik, harakatchanlik, chaqqonlik. Sangvinik, o'smirlarning kayfiyati tez o'zgaradi. Bu tipdagi o'smirlar boshqalar bilan tez topishib ketadi. Ularda o`quv ishlarida, mehnatda va jamoat ishlarida faollikni tarbiyalash lozim. Ularni boshqa ishlarga berilib ketmasligi uchun doimo nazorat qilish va kuchi yetadigan ish bilan band

2.Flegmatik temperamentdagi o'smir og'ir, vazmin, harakatlari salmoqli bo'ladi. Ular boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Flegmatik

tipdagi o'smirlarda barcha psixik jarayonlar sust rivojlangan bo'ladi. Ularning jahlini chiqarish yoki ranjitish qiyin, ba'zi hollarda bu temperamentli o'smirlarda mehnatga, tevarak atrofga, hayotga kishilarga va o'ziga nisbatan beparvo munosabat hollari uchraydi. Shuning uchun ulardagi sovuqqonlik, beparvolik, bo'shanglik, faoliyatsizlikning nomoyon bo'lishga yo'l qo'ymaslik kerak.

3.Xolerik temperamentdagi o'smirlar chaqqon, harakatchan, qo'zgaluvchan bo'ladilar. Ularda barcha jarayonlar tez sodir bo'ladi. Bu tipdagi o'smirlar hissiyotlari kuchli, yorqin ifodalanib tez paydo bo'ladi, ba'zan kayfiyati keskin o'zgaradi. Xolerik tipdagi o'smir boshqalar bilan munosabatda qat'iylik, serjahllik va o'zini tuta olmaslikka yo'l qo'yadi. Natijada kishilar xatti-harakatini ob'yektiv baholay olmaydi va ziddiyatli vaziyatlar tug'diradi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, ko'ngilga qattiqtegadigan so'zlar ishlatishi tufayli bunday o'smirlarni jamoada yoqtirmaydilar. Xolerik tipdagi o'smirlardan doimo muloyimlik bilan, ammo qat'iyatli, shoshilmay, o'ylab javob qaytarishlarini talab qilish, ular xatti-harakatlarida o'rtoqlari va kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida o'zini tutishlikni tarbiyalab borish lozim. Bunday o'smirlardan mehnat faoliyatida izchillikni va ishda tartibli bolishni tarbiyalash hamma topshiriqlarni ish mobaynida yaxshi bajarishlarini talab qilish lozim.

4.Melanxolik temperamentdagi o'smirlarda psixik jarayonlarning sust o'tishi qayd qilinadi. Ular kuchli qo'zovchilarga qiyinchilik bilan javob qaytaradilar, diqqatlarini bir narsaga uzoq vaqt va kuchli jalb eta olmaydilar. Bunday tipdagilar ishga passiv, kam qiziquvchan bo'ladilar, ularda hissiyot va hayajonli holatlar keskin paydo bo'ladi va chuqur, davomli bo'ladi. Ularni ranjitish oson, xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar. Melanxolik tipdagi o'smirlar odamlar bilan aralashmaslikka va yolgizlikka moyil bo'ladilar lekin odatlangan sharoitda o'zlarini erkin his qiladilar va unumli ishlaydilar. Shuning uchun bunday o'smirlarda odamga el bo'lishlikni o'stirish, jamoada do'stlik va o'rtoqlik hislarini tarbiyalash zarur, chunki ular osonlikcha yakkalanib, o'z kechinmalariga berilib ketishi yoki jamoadan chetga chiqib, salbiy ta'sirlarga tushib qolishi mumkin.

Bolalar va o'smirlarda birovlar va o'z-o'zining xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qarash faoliyatining sust rivojlanganligi ularni noqonuniy hatti-harakatlarni baholashda xatoliklarga yo'l qo'yishlikka olib kelganligi kuzatiladi. Ulardagi bu xususiyatlar noqonuniy xatti-harakatlarni birovlarining ko'zi bilan qarash va baholash

qobiliyatini susaytiradi. SHuning uchun ular tez-tez jinoyatchilik mazmuniga ega bo'lgan harakatlarning ta'siriga tushib qoladi.

Shuningdek, bolalar va o'smirlarning yosh davri xususiyatlariga xos bo'lgan qo'zg'aluvchanlik, impul'sivlik holatlari, affektiv kechinmalar bilan bog'liq bo'lgan turkum affektiv qo'zg'alishlarni keltirib chiqarganligi kuzatiladi. Bunday holatlar mazmunida muayyan shart-sharoitlar va turli xil voqea-hodisalarga nisbatan qisqa muddatli va kuchli namoyon bo'luvchi emotsiyalar sifatidagi qo'zg'atuvchilar yotganligining guvohi bo'lamiz.

1.3 Xulq og'ishi tushunchasi va uni aniqlash mezonlari.

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ya'ni, "og'ishgan", "deviant" so'zlarini qo'llaymiz. Bunda birinchi atama ilmiy, aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli ko'proq afzal ko'riladi.

O'rganilayotgan tushunchaning murakkabligi hamda uning fanlararo xarakterga ega ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant xulq birinchidan, "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan muomala va inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, "Inson faoliyatining ommaviy va mustaqkam shakllarga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Ushbu qo'llanmada biz og'ishgan xulqni birinchi jihatdagi afzallikda – individual faollikning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, tushunchani ta'riflash ko'rinishning muhim belgilarini ajratishni ko'zda tutadi. Shu ma'noda shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratiga yordam bersin.

1. *Shaxsning og'ishgan xulqi – bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushmaydigan axloq.*

Boshqacha aytganda, bunday xulq mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydi. Deviant xulq me'yordan og'ishgan axloq yoki xulq sifatida aniqlaganda shuni esda tutish kerakki, ijtimoiy me'yorlar o'zgaradi. Bu o'z navbatida, og'ishgan xulqqa tarixan, o'tkinchi xarakter beradi. Misol sifatida davr va davlat, chekishga munosabatdan va boshqalarni keltirish mumkin.

Shubhasiz, deviant xulq – bu har qanday me'yor emas, balki ushbu jamiyat uchun shu davrda birmuncha muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarning buzilishidir.

2. *Shaxs va deviant xulq hamda uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi.* Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya (me'yorlar), shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo'lishi mumkin. Dastavval, sanksiyalar istalmagan xulqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi (yorliq, tamg'a) – unga tamg'a osish kabi salbiy ko'rinishni olib keladi. Masalan, jazo muddatini o'tab, "me'yoriy" hayotga qaytgan odamning moslashuvdagi qiyinchiliklari ko'rinishida.

Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko'pincha, atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo'ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, o'z-o'zini o'ldiruvchi va q.k.) tamg'asi sekin-asta deviant barqarorlikni (o'z-o'zini his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, ahmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi va deviant xulqning takrorlanishini keltirib chiqaradi.

3. *Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi.* Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va dard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant xulq o'zining eng keyingi ko'rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug'diradi. Masalan, suitsidal xulq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish xulqlari. Zararning psixologik ko'rinishi o'sha odamning o'zi yoki uning atrofidagilarning aziyat chekishidir.

Ushbu belgi shaklidan – destruktiv yoki autodestruktiv bo'lishidan qat'iy nazar og'ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, kreativlik va marginallik kabi yaqin ijtimoiy ko'rinishlar og'ishgan xulq bo'la olmaydi va ushbu belgini qoniqtirmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me'yorlardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo'lgan qismida g'ashlik

uyg'otsa-da, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko'ra foydaliroqdir. Xullas, radikal moyil bo'lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Kreatorlar nostandartligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk ochuvchilar sifatida chiqadilar. Marginallar ijtimoiy me'yorlarning chegaralarini kengaytirgan holda o'zlarini ko'pchilikka qarshi qo'yadilar. Sanab o'tilgan fenomenlar uyg'unlashishi mumkin. Masalan, ko'pincha o'smirlar xulqi barcha uchta tendensiyani o'zida aks ettiradi pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan eksperiment o'tkazgan o'smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Biroq heroin iste'mol qiluvchi o'smir hayot uchun yuqori xatarli og'ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. SHunday qilib, og'ishgan xulq o'z mohiyati bo'yicha destruktivdir.

4. *Xulq og'ishini takrorlanuvchi (ko'p marotaba yoki uzoq muddatli), deb xarakterlash mumkin.* Agar yetti yoshli bola ota-onasidan so'ramay shirinliklar uchun uncha katta bo'lmagan mablag'ni olgan bo'lsa, kelgusida ijtimoiy tartibni buzmasa, ushbu xulqni og'ishgan sifatida ta'riflash odobdan bo'lmaydi.

Aksincha, o'smir tomonidan doimiy tarzda anglangan holda pul o'g'irligi sodir etilsa – bu og'ishgan xulq shakllaridan biri hisoblanadi.

5. *Xulqni og'ishgan, deb tasnif qilish uchun u avvalo, shaxsning umumiy yo'nalganligi bilan muvofiqlashishi zarur.* Bunda xulq nostandart vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidar axloq), inqirozli vaziyat oqibati (masalan, yaqin odaming o'limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg'u reaksiyasi) yoki o'z-o'zini muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo'lmasligi lozim.

6. *Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan yana biri u tibbiy me'yorlar chegarasida ko'rib chiqiladi.* U garchi patologik holat bilan uyg'unlashsa-da, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmasligi darkor. Psixik parokandalik holatida psixik kasal odam patologik xulqni namoyon qilishi tabiiydir. Patologik xulq tibbiy me'yorlardan og'ishadi va darajasi tibbiy aralashuvni talab qiladi hamda psixiatriyada, masalan, psixik kasallarning deviant xulqi sifatida o'rganiladi. Patologik xulq – kasallik holati ta'siri ostida shaxsning o'z harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyatining ahamiyatli tarzda pasayishini nazarda tutadi.

Ayni damda muayyan sharoitlarda og'ishgan xulq patologik ko'rinishga o'tishi mumkin. Masalan, muhtoj bo'lib qolgan xulq tizimli

kasallikka o'sib o'tishi mumkin – piyonistalik, giyohvandlik. Shunday qilib, og'ishgan xulqli shaxs “sog'liq – kasallik oldi – kasallik” psixopatologik ruhida istalgan joyni egallashi mumkin.

7. *Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan yana biri u ijtimoiy moslashishni izdan chiqishining turlicha ko'rinishlari bilan birga boradi.* Ushbu xulq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas, biroq u tabiiy suratda ijtimoiy moslashishning izdan chiqishi holatini keltirib chiqaradi. Moslashishning izdan chiqishi holati, o'z navbatida, shaxsning og'ishgan xulqini mustaqil sababi bo'lishi mumkin.

8. *Og'ishgan xulqning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o'ziga xosligini ta'kidlash mumkin.* Og'ishgan xulq dastavval, shaxsning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U “ichki” jihatdan o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha kuzatiladi.

Odamlarning individual farqlanishi xulq sabablari, ko'rinish, dinamika shakllari, ifodalanganlik belgisi va darajasiga dahldordir. Masalan, deviatsiya shakli va uning ifodalanganlik darajasi shaxsning og'ishgan xulqini birmuncha yaqqol tavsiflash hisoblanadi. Ular to'la beozor ko'rinishdan shaxsning hayotiy faoliyatini kuchli buzilishigacha o'zgartirishi mumkin.

Boshqa muhim individual xususiyat odamning og'ishgan xulqni qanday o'zi uchun begona, istalmagan xulq sifatida, vaqtinchalik qoniqtiruvchi yoki oddiy va maftunkor xulq sifatida qarashiga taalluqlidir. Shuning uchun shaxsning og'ishgan xulqqa munosabati (shaxsiy nuqtai nazari) ko'p hollarda uning taqdirini belgilaydi.

Barcha yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, og'ishgan (deviant) xulqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin – bu shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi, jamiyat yoki uning o'ziga zarar yetkazuvchi, shuningdek, unda ijtimoiy moslashishning izdan chiqishi bilan birga boruvchi turg'un xulqidir.

Ijtimoiy-me'yoriy mezon nuqtai nazaridan xulq me'yoriyligining yetakchi ko'rsatkichi shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasi hisoblanadi. Bunda me'yordagi, muvaffaqiyatli moslashuvi qadriyatlararo, individning xususiyatlari va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi talablar, qoidalarning maqbul muvozanati bilan xarakterlanadi. Shubhasiz, ijtimoiy talablarni yaqqol inkor etish kabi individuallikning namoyon bo'lishi, masalan, konformizm shaklida – shaxs manfaatlarini muhit bosimiga to'liq bo'ysundirish ham birdek muammo hisoblanadi.

Etarlicha moslashmaganlik – bu shaxsiy ahamiyatli bo'lgani kabi muhit talablarini qabul qilish va bajarishga, shuningdek, o'z individualligini aniq ijtimoiy sharoitlarda ro'yobga chiqarishi sust layoqat holati.

Ijtimoiy moslashuv sustligining ijtimoiy va individual ko'rinishlarini ajratish mumkin. Moslashuv sustligining ijtimoiy ko'rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

- past o'zlashtirish, o'z mehnati bilan mablag' ishlab topishga layoqatsizlik;

- hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda, sog'likda);

- qonun bilan nizolar;

- yakkalanib qolish.

Moslashmaganlikning individual ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

- ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, norozilik, qarshi harakat);

- o'zining mas'uliyatdan qochishga intilishida atrofdagilarga ko'tarinki e'tiroz bildirish, egotsentrizm;

- surunkali hissiy noturg'unlik;

- o'z-o'zini boshqarishning besamarligi;

- kelishuvchanlik va kommunikativ ko'nikmalarning zaifligi;

- reallikni kognitiv buzib ko'rsatish.

Xulq og'ishining kelib chiqishiga asos bo'luvchi omillarni ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda shaxsning ma'naviy jihatdan qashshoqligi masala siga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Shaxsning ma'naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxs ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.

Shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarni, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning passiv kuzatuvchisi bo'lmasdan, o'z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o'zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o'z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o'rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxs turli xil

hayotiy voqea-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqa oladi. SHuning uchun shaxsning ijtimoiy fazilatlari, mustahkam va qat'iy hayotiy pozitsiyasini, maqsad va intilishlarini shakllantirish voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda muhim ekanligini unutmazlik kerak.

Shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida gapirilganda, birinchi navbatda shaxsning o'zi, ikkinchidan kichik ijtimoiy guruhlar, ya'ni oila, maktab, mahalla, uchinchidan esa ishlab chiqarish jamoasi va to'rtinchi navbatda jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiy holati katta ta'sir o'tkazilishini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ushbu omillarga alohida-alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, insonning ma'naviy barkamolligida shaxsning o'z o'rnini, uning qiziqishlari, ijtimoiy mavqei muhim va asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki inson ijtimoiy munosabatlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisi ham ekan, u o'z shaxsiy intilish va qiziqishlari, aql-idroki bilan o'zini-o'zi tarbiyalashga, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Individning ijtimoiylashuvida shaxsning o'rnini, ishtiroki, intilish va qiziqishlari pasaysa, inson ma'naviy barkamollik sari emas aksincha, ma'naviy qashshoqlik tomon yuz tutadi. Demak, insoning ma'naviy barkamollikka erishishida shaxsning o'z o'rnini, maqsad va qiziqishlari hamda intilishi katta o'rin tutadi.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri kichik ijtimoiy guruhlar, ya'ni oila, maktab va mahalla hisoblanadi. Eng avvalo, bola oilada shakllanadi, ijtimoiy ustanovkalarni (talab va me'yorlarni) o'rganadi, hayotiy tajribalarni egallaydi va milliy qadriyatlarni anglab boradi.

Haqiqatdan ham o'smirlik yoshi davrida kechadigan psixofiziologik o'zgarishlar, o'smirning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qarorlar qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi. Buning boisi bosh miya yarim sharlari faoliyatidagi nazorat organlarining kattalarnikidan sustligi va ikkinchi signal sistemasining o'ziga xos faoliyati bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga individual-psixologik jihatdan shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, ulardagi tormozlanish reaksiyasining noto'rg'unligi jinoyiy harakatlarni amalga oshirishda o'z hatti-harakatlarini idora qila olmay qolishga sabab bo'ladi.

Impul'sivlik holati asosida yuzaga kelgan xulq og'ishida inson o'z xatti-harakati motivlarini anglab yetmaydi va to'g'ri baholay olmaydi. Bunday impul'siv-affektiv holatlar o'smirning o'z faoliyatini ongli boshqarish va nazorat qilish qobiliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlarning zararli odatlarga berilishlari, xususan spirtli ichimlikka rujuqo'yishlari, giyohvandlik va tamaki mahsulotlarini chekishlari holati ham ularda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi²⁵.

²⁵ Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. (Монография) "Фан" нашриёти, Тошкент – 2008, 284 б.

II BOB. XULQI OG'ISHGAN O'SMIRLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TA'SIRINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

2.1. O'smirlarni milliy umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash xulq og'ishining oldini olish omili sifatida.

Xulq og'ishining kelib chiqishiga asos bo'luvchi omillarni ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda shaxsning ma'naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Shaxsning ma'naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxs ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.

Shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarini, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. SHuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning passiv kuzatuvchisi bo'lmasdan, o'z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o'zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o'z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o'rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxs turli xil hayotiy voqea-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqa oladi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiy fazilatlari, mustahkam va qat'iy hayotiy pozitsiyasini, maqsad va intilishlarini shakllantirish voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda muhim ekanligini unutmazlik kerak.

Shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida gapirilganda, birinchi navbatda shaxsning o'zi, ikkinchidan kichik ijtimoiy guruhlar, ya'ni oila, maktab, mahalla, uchinchidan esa ishlab chiqarish jamoasi va to'rtinchi navbatda jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiy holati katta ta'sir o'tkazilishini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ushbu omillarga alohida-alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, insonning ma'naviy barkamolligida shaxsning o'z o'rni, uning qiziqishlari, ijtimoiy mavqei muhim va asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki inson ijtimoiy munosabatlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisi ham ekan, u o'z shaxsiy intilish va

qiziqishlari, aql-idroki bilan o'zini-o'zi tarbiyalashga, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga harakat qiladi. Individdning ijtimoiylashuvida shaxsning o'ri, ishtiroki, intilish va qiziqishlari pasaysa, inson ma'naviy barkamollik sari emas aksincha, ma'naviy qashshoqlik tomon yuz tutadi. Demak, insoning ma'naviy barkamollikka erishishida shaxsning o'z o'ri, maqsad va qiziqishlari hamda intilishi katta o'rin tutadi.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri kichik ijtimoiy guruhlar, ya'ni oila, maktab va mahalla hisoblanadi. Eng avvalo, bola oilada shakllanadi, ijtimoiy ustanovkalarni (talab va me'yorlarni) o'rganadi, hayotiy tajribalarni egallaydi va milliy qadriyatlarni anglab boradi.

Alkogol' va giyohvand moddalar psixotaksik xususiyatga ko'ra, narkotik ta'sir ko'rsatuvchi va sarxo'sh qiluvchilik xususiyatiga ega bo'lgan moddalar hisoblanadi. U inson bosh miyasiga narkotik ta'sir ko'rsatib, butun organ va nerv sistemalari faoliyatini va shaxsning o'z-o'zini anglash darajasini susaytiradi. Sarxushlik holati kishida andishasizlik, odobsizlik, qo'pollik va yengil-elpi fikr yurituvchanlikni keltirib chiqaradi hamda tafakkur, diqqat, xotira jarayonlarini susaytirib, instenktiv xulq-atvor sifatlarining yorqin ifodalanishiga olib keladi. Natijada inson sarxushlikda o'z xatti-harakatlarini idora qila olmay qolish natijasida muammoli vaziyatlarda tafakkur xususiyatlarining susayganligi tufayli to'g'ri qaror qabul qilishga qiynaladi va oqibatda nizoli vaziyatlarda noto'g'ri qaror qabul qilish natijasida g'ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir etiladi.

Oilada ota-onalarning alkogolizmga berilishi, bola ko'z o'ngida ichish, chekish va nojo'ya qiliqlarni qilishi bolaga ko'rgazmali ta'sir ko'rsatadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deganidek o'smir oilasida ota-onasidan ko'rgan qiliqlariga taqlid qila boshlaydi. Avvaliga chekishni, ichishni o'rganib oladi, so'ngra kuchliroq ta'sir etuvchi moddalarga o'tadi. Qarabsizki, oilasi va ota-onasida kuzatilgan holatlar bolada ham takrorlana boshlaydi.

Bolaga ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari tomonidan hadeb vasiylik va homiylik ko'rsataverish ham yaxshi natija bermaydi. Ota-onalar yoki oilaning katta a'zolari bunday munosabatning o'rniga bolalar bilan hamfikir, do'st kabi munosabatda bo'lsalar, bolalarda o'z-o'zini baholash, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish hissiining shakllanishiga olib keladi.

Oilada bolalarga tarbiyaviy ta'sir etish sifatini oshirish uchun ota-ona va oilaning katta a'zolari tomonidan bolaga qo'yiladigan talablar va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda so'z bilan ish birligi bo'lishi yaxshi natija beradi. Oilada bunday birlikning bo'lmasligi, bola xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, bolalar va o'smirlar bilan munosabatda bo'lishda ularning ko'ngliga, yosh xususiyatlariga, psixologiyasiga e'tibor bermaslik, oilalarda bir-birini haqoratlash, do'q-po'pisa va zulm o'tkazish asosida qilinadigan munosabat bolalarda qo'rqqoqlik asabiylik, yolg'onchilik, shafqatsizlik, qo'pollik, andishasizlik kabi sifatning shakllanishiga olib keladi. Bunday sifatlar bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Ayrim oilalarda bolalar va o'smirlarga yetarlicha shart-sharoit yaratib berilmasligi hamda ular faoliyatini cheklash, ularda infantillik, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish qobiliyatining susayishi kabilariga olib keladi.

Bugungi o'smirlarning istak-ehtiyojlari oldingi o'smirlarga qaraganda ancha o'sgan. Ular yaxshi kiyinishini, dam olishini, turli joylarni ko'rishini, magnitolo yoki videotexnikalarga, uyali telefonga ega bo'lishni xoxlaydilar. Oilada esa bularga ega bo'lishlikka imkoniyat mavjud emas. Natijada ushbu ehtiyojlarni qondirish yo'lida bolada g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni bajarish istagi paydo bo'ladi. Bunday istaklar bolani o'z-o'zidan g'ayri qonuniy harakatlarni bajarishiga majbur qiladi.

Bugungi kunda o'zbek oilalarida ota-onalarning yoki oilaning katta a'zolarining rad etish, ta'qiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usuli ham bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va ba'zan o'z joniga qasd qilish holatlariga sabab bo'layotganligi kuzatilmoqda. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning xoxish-istagi, o'y-xayollari, orzu va intilishlari, fikr va mulohazalari inobatga olinmaydi. boshqaruvchanlik qobiliyatlari sust rivojlangan bo'ladi.

Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvafaqqiyatlarini avlodlardan avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, xar bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida qayd qilinganidek, «Ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarining ustivorligi» ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy

tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xo'sh qadriyatning o'zi nima? Uni qanday tushunmoq kerak? Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar tushuniladi. qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan izohlaganimizda, insonlarning tarixiy tajriba an'analari kelgusi avlodlarga to'lato'kis o'rgatish, ta'lim tarbiya berish tushuniladi. Shuning uchun milliy ma'naviy qadriyatlarni e'zozlab, ardoqlab sevib bajarish va ularni o'z holiga keltirmoq dolzarb masaladir. Xalqimiz erishgan istiqloq g'oyalari jamiyatimizning hamma sohalariga chuqur o'zgarishlari bilan tobora singib va keng tomir otib kirib bormoqda. Mustaqil O'zbekistonimizning har tomonlama – iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishini yuksaltirishda dunyoning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarish maqsadida xalqimizning boy ma'naviyatini o'rganish, asrlar davomida tarixiy shakllanib va mujassamlashib kelayotgan milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarimizni tiklash va takomillashtirish, ularni turmushga tadbiq etish orqali bugungi kun kishisini tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Istiqloq xalqimizga so'z va fikr erkinligi bilan bir qatorda ilgari ishlatilib kelingan ko'pgina milliy tushunchalarni hayotimizga qaytardi. Endilikda «qadriyatlar», «mustaqillik», «istiqloq», «milliy iftihar» kabi tushunchalar o'zining asl mazmuniga ega bo'lmoqda.

Eng avvalo shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha. Shuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni o'rnatishimiz mumkin. Masalan, «Falsafiy ensiklopediya»ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: «Qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U, birinchi biror obektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normative belgilovchi – baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi. Shunga ko'ra ob'ektiv (ashyoviy) va sub'ektiv (ong) qadriyatlarini bir-biridan farqlanadi».

Mustaqillikning ma'naviy sohadagi yana bir ne'mati shundan iboratki, jamiyatimiz, davlatimizning dinga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ma'lumki, diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo'lib u o'z ichiga buddizm (eramizdan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda), islom (eramizning VII asrida G'arbiy Arabiston) kabi jahon dinlarini qamrab oladi.

Diniy dunyoqarashning asosiy elementlarini diniy e'tiqod tashkil qiladi. Diniy e'tiqod dinga ishonuvchi kishilar ruhiyati,

intellectual xissiy va iroda elementlarini o'ziga qamrab olgan murakkab hodisadir. Diniy e'toqodning intellektual elementi dinga ishonuvchi kishilar ongida mavjud bo'lgan diniy tasavvurlar, obrazlardan tashkil topadi va ular dinga ishonuvchi kishilar tomonidan hayotiy zarur narsa sifatida qabul qilinadi. Diniy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlarini (konsepsiyasini) ifodalovchi diniy aqidalar dindorlar uchun majburiy hisoblangan va muhokama yuritmasdan ishonish lozim bo'lgan diniy e'tiqod talablarida o'z aksini topgan. Islom dinining shakllangan va diniy an'analarda e'tirof etilgan aqidalari yoki imon talablari 7 ta: Ollohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga va inson o'lgandan keyin tirilishiga ishonish. Diniy qadriyat va dunyoqarashning yana bir tarkibiy qismini diniy ong tashkil etadi. Sig'inish odamlarning kundalik hayotida yakka yoki jamoa bo'lib bajariladigan rasmiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Qurbonlik qilish, Qur'on o'qitish, ro'za tutish va diniy bayramlarni nishonlash, islom diniga keng tarqalgan marosimlardir. Sig'inish vat oat-ibodat tufayli kishilarning diniy ehtiyojlari qondiriladi.

Diniy e'tiqod diniy onging umumiy belgisi, mezon bo'lib, u diniy g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar, qadriyatlarni tan olib, Ollohning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi uchun aqidalarning ishlab chiqilishi va turlicha diniy bayramlar, marosimlarning o'tkazilishi katta ahamiyatga egadir. Diniy qadriyatlar o'zining tantanali bayramlari, har xil marosimlari bilan kishilar ko'nlida ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik, xushfe'llik, rahm-shafqat, sabr-toqat, qanoat, mehr-oqibat, hamdardlik, vijdoniy burch, poklik, odamgarchilik va shu kabi fazilatlarini shakllantiradi va kamol topdiradi.

Diniy dunyoqarashning tarkibiy qismida mo'minlar uchun Makka Madinaga borib u yerdagi muqaddas joylarni ziyorat qilib, turli diniy urfodatlarni bajarish islom rukularidan biri hisoblanadi. Shuningdek, islom diniga payg'ambarlar va ularning sahoblari qadamjolarini ziyorat qilish an'anasi ham keng tarqalgan. Markazi Osiyo hududida bunday joylar juda ham ko'p. samarqanddagi Shohi Zinda, Imom Ismoil al-Buxoiy, Muhammad Huvaydo, Buxorodagi Qizbibi, Xoja Bahouddin Naqshband, Toshkent viloyatidagi Zangiota, Anbar ona qadamjo va maqbaralari shular jumlasidandir.

Diniy dunyoqarashning e'tiborga molik jihatlaridan biri unda har bir inson amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy me'yor va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Masalan, Shariat bo'yicha ummatlarga buyurilgan amallar sakkiz xil bo'lib, (farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom, makruh, mustakrah) jami 934 huquqlar va nizomlarni tashkil etadi. Ularning aksariyati hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki islom va uning shariat talablari mavjud shaxsiy hayotdagi va umuminsoniy muammolardagi eng zarur axloqiy fazilatlarni o'zida aks ettirgan.

Diniy dunyoqarashning inson ongiga singib, uning qalbida chuqur ildiz ketishining boisi, uning asosiy qoidalari oddiy kishilarning ruhiyatiga xos bo'lib, ularning xissiyoti, tafakkuriga katta ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida bayon qilinib borgan. Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatda katta hikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir. Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avloddan avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bunday katta ma'naviy boylikka biz albatta hurmat bilan qarashimiz kerak.

Istiqlol tufayli dinga munosabat o'zgardi. Qur'oni Karim, Hadisi sharif va boshqa diniy adabiyotlar o'zbek va rus tillarida chop etildi. Ramazon va Qurbon hayitlari xalqimiz milliy bayram sifatida qaytdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, diniy qadriyatlar hodisa, jarayon sifatida insonning yoshi, jinsi, xulqi, aqli va jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarining ham natijasidir. Diniy qadriyatlar birinchi navbatda insonning ruhiy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Tasavvur eting, inson kimgadir yaxshilik qilgisi keladi. Bu hol ayni paytda uning o'zi ham yaxshilikka, mehrga mushtaq ekanini bildiradi. Shu bois u yaxshilik qiladi-yu, buning evaziga o'ziga mehr-quvvatoladi, ruhiy ehtiyojini qondiradi. Shu ehtiyojni qondirish jarayonida insonning xayrli amallari, ezgu faoliyati shakllana boradi. Diniy qadriyatlarning shaxs tarbiyasida ta'sirchan kuchi ana shunda namoyon bo'ladi.

2.2. Mahalla va oilalardagi sog'lom muhitda - o'smirda qadriyatli motivatsiyani rivojlantirish.

Respublikamizning mustaqillik yo'lida rivojlanishida, davlatni boshqarishda, demokratik islohotlarni amalga oshirishda, yoshlar o'rtasida yuzaga kelayotgan turli xil salbiy illatlarning oldini olishda

hamda bu ishlarda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boqarish organlari hisoblangan mahallaning o'rni beqiyosdir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat va jamoat tashkilotlaridan farqli o'laroq, yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda, mahallaning har bir oilasi, fuqarosi shu jumladan, voyaga yetmagan yoshdagi bolalar hayotiga, ongiga kirib borishda, ularni jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlashda, kelajak avlodni aqlan barkamol, ma'nan yetuk, axloqan pok etib tarbiyalashda alohida mavqega ega. Shu boisdan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishda, tegishli hududda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ko'maklashish kabi vakolatlarning berilishi bejis emas albatta.

Oila, mahalla va maktab hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, voyaga yetmagan bolalar o'rtasidagi xulq og'ishi va tarbiya buzilishi holatlarining oldini olish va bunday bolalar bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida Respublika prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, «Mahalla» xayriya jamg'armasi, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi mahalliy xokimliklar bilan kelishilgan holda tashkiliy – pedagogik ishlarni olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining «Jamoatchilik maslahat kengashi tuzish haqida»gi buyrug'i imzolandi. Buyruqqa muvofiq Nizom va tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi voyaga yetmagan, tarbiyasi og'ir, noqobil yoshlar bilan ishlash jamoatchilik kengashi Nizomi asosida olib borilmoqda.

Ammo kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari, mahallalar, maktablar, ichki ishlar bo'limi va oilalar hamkorligi talab darajasida emasdek tuyuladi.

Mahallalarda profilaktika ishlarini tashkil etishni rejalashtirish, noqobil oilalar va ularning farzandlari bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari oldida boshqa bir talay ijtimoiy, pedagogik-psixologik vazifalar ham turadi. Ular quyidagilardir:

1. Ijtimoiy-psixologik jihatdan nosog'lom muhitli oilalarni o'rganish.

2. Mahalladagi voyaga yetmaganlar shaxsining psixologik, tibbiy, ta'lim-tarbiyaviy xususiyatlarini, turmush sharoitlarini, qiziqish va ehtiyojlarini, qiyinchilik va muammolarini, nizoli vaziyatlarni va bolalar xulq-atvoridagi og'ishlarni o'rganish.

3. Mahalladagi oilalarga axloqiy-psixologik, madaniy, va ma'rifiy jihatdan tavsifnoma tayyorlash.

4. Oiladagi kriminal omillarni, xususan al'kogolizm, narkomaniya, ota-onaning buzuq va parazit hayot kechirishi, oilaviy janjallar, ota-ona tomonidan bolalar tarbiyasida qo'llanilayotgan tarbiya usullari, oilada sudlanganlarning mavjudligini o'rganish va kerakli maslahatlar berish.

5. Mahalladagi oilalarning ijtimoiy-demografik omillari, ya'ni to'liq yoki noto'liq oila, ko'p bolali yoki kam bolali oila, qayta turmush qurgan va o'gay farzandlarning mavjudligi holatini o'rganish.

6. Oilalarda ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi pedagogik-psixologik bilimlari darajasini o'rganish.

7. Mahalladagi tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarni ijtimoiy foydali mashg'ulotlarga jalb qilish.

8. Oilalarda bolalarning ijtimoiy yetimligini (nazoratsizlik va qarovsizlik) keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va uning oldini olishga zaruriy malahatlar berish.

9. Bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning oldini olish chora tadbirlarini ko'rish.

10. Tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan yakka tartibda ishlash chora tadbirlarini ko'rish.

11. Mahalladagi bolalar tarbiyasida qo'ni-qo'shnichilik ta'sirini kuchaytirish.

12. Mahallada bolalar tarbiyasini oila-maktab-mahalla hamkorligi konsepsiyasi asosida tashkil etishga erishish.

O'quvchilar ongida axloqiy qadriyatlar shakllantirish uchun:

1. Vatanga, ota-onaga hurmat, muhabbat tushunchalarini va tasavvurlarini kengaytirish;

2. Burch, vijdon, insof haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;

3. O'rtoqlik, do'stlik haqidagi tasavvurlarni kengaytirish. Estetik qadriyatlar o'quvchilarning estetik sezgi va idrokini tarbiyalash, tashqi va ichki go'zalligini shakllantirishdir. Ularda estetik qadriyatlarni shakllantirish uchun:

Buyuk mutafakkir Suqrot esa «qadriyat nima?» degan savolga «har bir insonning o'zligini anglashi» deb javob berdi. Bu borada salohiyatli adib Maqsud Sh ayxzodaning ushbu fikrlari juda o'rinlidir: «Agar xar bir xalq deb ta'kidlagan edi u, o'z ulug' ajdodlarini e'zozlab, ularning qadriga yeta bilmas ekan, bunday el istiqboldan ham mahrum bo'lishi mumkin». Bunday qarashlar bugungi kunda barcha ta'lim tarbiya dargohlarida asosiy tamoyillardan biri sanalmoqda.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'-analarisiz tasavvur qilish qiyin. «Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim»²⁶ «Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi»²⁷. «Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriyatini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha»²⁸. «Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, mada- niy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha»,²⁹ - degan ta'riflar berilgan. Bu esa, o'z navbati- da, qadriyatlarining ahamiyatini ko'rsatmoqda. Milliy qadriyatlar - millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Keyingi vaqtlarda O'zbekistonda milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to'g'ri emas.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Harakatlar strategiyasi» islohotlarning yangi bosqichi bo'lib, unda aholini, oilalarni ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash yetakchi o'rinni egallaydi. SHu o'rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash,

²⁶Комилов Т., Абидова С. Миллий ахлокий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамияти. ЎзР ФА, «Фан», 2000. Б.20;

Ортиқов Н. Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. - Т: «Ўзбекистон», 1997. Б.48.

²⁷Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати. (А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида). - Т: Шарқ, 1998, Б. 279

²⁸Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. «Ғ.Ғулом номидаги нашри- ёт-матбаа ижодий уйи». Т: 2010. Б. 707.

²⁹Тарбия энциклопедияси. 2010. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Б.509.

og'irini yengil qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari yo'lga qo'yildi.

G'ulomxon G'ofurov milliy an'analarga bag'ishlangan maqolalaridan birida **milliy kadriyatlarning** quyidagi ko'rinishlarini tilga olgan:

1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma'naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar³⁰. Jumladan, "Ota-bobolarimiz ilm o'rgatish bilan birga farzandlari-mizga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan **milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni** singdirganlar.³¹"; "O'zbeklarning aksariyati... yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi **ma'naviy qadriyat**, inson qalbi ning gavharidir³²";

"Iqtisodiy qadriyat - iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag'rikenglik, ishonchlilik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha".³³ SHu o'rinda qo'ni-qo'shnichilik qadriyatini misol qilib keltirsak, unda qo'shnilar o'rtasida o'zaro ishonch, xabar olish va moddiy yordam berish milliy qadriyat sifatida birinchi o'ringa qo'yilgan. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'h-na tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalari-ni bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy ta-raqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi turibman", "xalaqit berma" kabi fikriy ehtiyojini qo'niqtirmaydigan javoblar beradilar. Bunday munosabat bo'laga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, undagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so'ndiradi, oila a'zolari bilan maslahatlashish kabi odatlarning susayishiga olib keladi.

Yuqoridagi vaziyatlardan uzoqroq bo'lib risoladagidek munosabatlarni shakllantirishda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan axloqiy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarni bilish, o'rganish va hayotda qo'llash maqsadga muvofiqdir. SHu o'rinda Yusuf Xos Hojibning "Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri - til, boshqasi - yurak. Til so'z uchun, yurak, ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanishi uchun berilgan", degan fikri ota-onalarni va yoshlarni go'zal, chiroyli

³⁰Гофуров Ф. Миллий анъаналар//Халқ сўзи, 1993 йил. 11 февраль, Б. 2

³¹Жалолов Х. Оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлиги. Тарбия. №2 (6), 2006. Б.13

³²Қодирова О. Оилавий келишмовчиликлар. Тарбия №2 (6), 2006. Б. 22.

³³Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Гофур Гулом номидаги нашри-ёт-матбаа ижодий уйи-Тошкент; 2010. Б. 241

so'zlaydigan, ma'naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo'lishlarida qo'l keladi. Yoshlarning ma'naviy qarashlari milliy, diniy, o'z-o'zini anglash holatlari, talablari, hayotdagi faoliyati orqali o'z aksini ifoda etadi. Shu yo'nalishda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning fikricha, odamning ma'naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar bu - "Haqgo'ylik" (60,8%), "Milliy qadriyatlarni hurmat qilish" (55,5%), "O'z xalqining tarixini yaxshi bilish", "Milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish" (44,2%), "Qalb pokligi" (39,1%), "Kamtarlik" (39,5%), Millatlararo va hududlararo bag'rikenglik" (29,6%), "Eks-tremistlarga salbiy munosabat" (19,5%), "Mehnatsevarlik" (0,5%), "Madaniylik" (0,9%), "Bilimdonlik" (0,7%) ko'rsatilgan³⁴. So'rov-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlar fikriga ko'ra, yoshlarimizning yarmidan ko'pi poraxo'rlikni - 54%, takabburlikni - 52,7%, shu bilan birga, ikkiyuzlamachilikni - 17,3%, beparvolikni - 14,5%, tekinxo'rlikni - 10,4%, yolg'onchilikni - 1,7%, hasadni - 0,5%, g'iybatni - 0,6%, tuhmat, dangasalik va qo'pollikni - 0,2% yoqtirmas ekan. Yoshlarning fikri bo'yicha xalqning kuchi millatning birdamligida, uning olamshumul ahamiyati, avvalo, iqtisodiyotida - 69,7%, qurolli kuchlarida - 44,6%, ilmda - 44,4%, siyosatda - 41,5%, odobliligida - 37,7% deb ta'kidlashgan³⁵.

Natijalardan ko'rinadiki, yoshlardan "odamning ma'naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar" so'ralganida, salbiy axloqiy qarashlarga juda kam foiz berilgani, axloqiy qadriyat sifatleri esa yuqori baholangani o'g'il-qizlarimiz bugungi kunning yetuk, barkamol, vatanparvar farzandlari sifatida kamol topayotganlaridan dalolatdir.

Bugungi innovatsion texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qadriyat atamasi arabcha "qadr" so'zidan olingan bo'lib, qimmatli, foydali degan ma'noni anglatadi. Qadriyat - bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy

³⁴ Каюмов Ў. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Т; "Ижтимоий фикр", 2011. Б.44-45.

³⁵ Каюмов Ў. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитид Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Т; "Ижтимоий фикр", 2011. Б.44-45.

daniy, ma'naviy omillar yig'indisidir. Bizning mentalitetimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlardan andisha sabr-toqat, vazminlik, mulozamat, sertakalluflik, keksalarga hurmat-ehtirom, ijtimoiy hayotda bosiqlik qonqo- nimizga singib ketgan.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek xalqi **milliy, ma'naviy qadriyatlar** va axloq- odobga bag'ishlangan maxsus teran ta'limotlarning merosxo'ridir. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-xaqoyiq" asarlari, Kaykovusning "Qobusnoma", Burhoniddin Marg'inoniy- ning yetti kitobdan iborat "Hidoya"³⁶, Husayn Voiz Koshi- fiyning "Axloqi Muhsiniy"³⁷ nomli odob-axloq me'yorla- rini batafsil yoritib bergan asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotmaga B.Ziyomhammadov o'zining "Komillikka eltuvchi kitob"³⁸ asarida "Qadriyat" so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh yo konkret bir millat yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlarini qadriyat deyiladi. "Moddiy qadriyatlar - kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirib, o'ziga xos xususiyati va shakllariga ko'ra odamlarda alohida his-tuyg'u uyg'otuvchi moddiy narsalarga aytiladi. Ularga buyuk inshootlar, bog' va xiyobonlar, antiqa uy-ro'zg'or buyumlari, tarixiy qimmatga ega bo'lgan uy anjomlari, qurol-yarog', oziq-ovqat, shaxsiy buyumlar va shunga o'xshash narsalar kiradi.

Xalqimiz ma'naviy saviyasini mustahkamlash va rivojlantirish;

Insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik,³⁹ deb qayd etilgani ham aynan milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyaviy ishlarni yoshlar o'rtasida olib borishda ko'proq qanday yo'nalishlarga e'tibor qaratish va targ'ibot ishlarida mahalla, oila, jamoat, tarbiyaviy muassasalarning o'rnini kuchaytirish zarurligini ko'rish mumkin.

Mualliflar qadriyatlar va ularning turlariga quyida- gicha yondoshganlar:

Oilaviy qadriyat - bir oila uchun ma'lum bir ma'naviyat turi (masalan, tug'ilgan kunni nishonlash);

Milliy qadriyat — millatning asrlar mobaynida yaratgan ma'naviy boyliklari, noyob tarixiy obidalarini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga

³⁶ Маргиноний Б. "Ал-Хидоя", 1-жилд. Т; 2001; Яна каранг "Хидоя", ЎзМЭ, 11-жилд.Т; 2005. Б. 326

³⁷ Кошифий В.Х. Ахлоқи Муҳсиний. - Т; ЎзМЭ, 2010.

³⁸ Зиёмухаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. - Т; "ТЦҚОН" наشري- ёти, 2006. Б.73.

³⁹ Тиллаева Г., Юсупов Қ., Бобоев Н., Халдибекова Ф., Юсупов А. Шахс маъна- виятини шакллантириш омиллари ва воситалари. Т: "Фалсафа ва ҳуқук инсти- тут" 2009. Б.12

yetkazish, rivojlanti- rish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, hurfikrlilik, vij- don va din erkinligini qaror toptirish, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;

Jamoa qadriyati - ma'lum bir mahallada, qishloqda, mehnat jamoasida biron ijtimoiy hodisa (ommaviy tadbirlar, masalan, hashar) urf bo'lgan;

Umuminsoniy qadriyat — jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi⁴⁰.

Qadriyatlarning xilma-xil shakllari, moddiy, ma'naviy, milliy, mintaqaviy, umumbashariy, jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, va boshqalar. Jumladan, milliy qadriyat - millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar - jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi⁴¹.

2.3 O'smirlarda xulq og'ishini oldini olish yuzasidan psixologik maslahatlar.

Ma'lumki, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqoza qiladi.

Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan Respublikamizda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda bu yo'nalishda olib borilayotgan amaliy ishlardan biri sifatida Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalarining tuzilishi va ularning faoliyatini belgilash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatning qabul qilinishi va ushbu hujjatda “voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklarga barham berish va ularning oldini olish” ga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar bolalar va o'smirlar yosh va individual-

⁴⁰ Тиллаева Г., Юсупов Қ., Бобоев Н., Халдибекова Ф., Юсупов А. Шахс маъна- виятини шакллантириш омиллари ва воситалари. Т: “Фалсафа ва ҳуқуқ инсти- тути” 2009. Б.16

⁴¹ Темирова Н.Э. Қадриятлар ва ёшлар камолоти. -Т: Фалсафа ва ҳуқуқ инсти- тути. 2008. Б.26

psixologik xususiyatlarini hisobga olgan va har tomonlama ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilishi va ularning ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilsin", deb ta'kidlanishini ko'rsatish mumkin.

Haqiqatdan ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bolalar va o'smirlar o'rtasidagi turli xil g'ayriqonuniy, shu jumladan xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq-og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqning turmush tarzi va mikro muhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy-ma'naviy va ma'rifiy salohiyatini o'stirish va boshqalar kiradi.

Maxsus-individual xarakterdagi tadbirlar sifatida esa bolalar va o'smirlarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar oriyentatsiyasi, hayotiy pozitsiyasi, onglilik darajasi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash tushuniladi.

Profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishigacha bo'lgan davrga, bu davrda olib boriladigan umumiy tarbiyaviy tadbirlarga, ularni takomillashtirishga, ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining oldini olishda ushbu oraliq davri muhim ahamiyat kasb etishligini unutmasligimiz kerak.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo ularning boshlanish davrini, uning ob'yektini hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun

tabiiy ravishda shaxsning motivatsion sohasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar shaxsining umumiy yo'nalishi tahlili xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat xulq og'ishi va salbiy illatlarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borish, balki sog'lom xulqli bolalar va o'smirlar o'rtasida ham ularni olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o'rtasidagi murakkab bog'lanishli jarayon bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonda o'smir shaxsi sub'yekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ob'yekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta'sir etuvchi element sifatida ifodalanadi.

O'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba'zan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmush tarzini belgilasa, ba'zan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'smirlarda g'ayri qonuniy xulq-atvorning kelib chiqqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta'sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zarururini ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta'sirchanligi eng avvalo, o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda o'quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg'ulotlar voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro yaqinlik va sog'lom munosabatni o'rnatishga bog'liqdir. Shuning uchun o'qituvchining tarbiyasi og'ir o'smirga nisbatan berayotgan e'tiborini, ularni o'zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo'layotganligini o'smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bu o'smir xulqini sog'lomlashtirishga qo'yilgan ilk qadam bo'lib hisoblanadi.

Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos

xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmash lozim.

Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri – tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. SHuning uchun ham bunday paytlarda ko'pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi.

O'qituvchi o'quvchi o'sib voyaga yetayotgan oila muhitini, uning axloqiy qiyofasini har doim ham bilavermaydi. Ba'zan ayrim o'qituvchilar bolalar va o'smirlar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan maslahatlashmay, ular haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lmay amalga oshiradilar. Bunday holatlarda tabiiy ravishda tarbiyaviy tadbirlarning olib borilishi ko'zda tutilgan profilaktik choralarning ta'sirchanlik darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Oqibatda profilaktikadan ko'zlangan maqsadga erishilmay qolinadi.

Ma'lumki, yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati – ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish davri hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. Bu jarayonlar o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar bolani bolalik chog'ida unga odob-axloq o'rgatishni eski shakl va usullaridan foydalanilgan bo'lsak, endi ular o'smir uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Avval bolalar ota-onalari, tarbiyachilarning axloq-odob haqidagi gaplarini bajonidil eshitgan bo'lsalar, endilikda

bunday ta'sir bolani zeriktiradi yoki yoqmay qoladi. Natijada, undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa bu davrning "qiyin", "murakkab" davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlaridagi kamchiliklar, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyin bolalarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, irodaning bo'shligi, aql-idrokning zaif rivojlanganligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi.

Salbiy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbilarmonchilik kabilar kuzatiladi va bunday xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash (jamoada orasida tarbiyalanganda ham)da faqat ularga yakkama-yakka yondashish lozim. Chunki ular jamoada yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini yoki tarbiya, tanbex berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lish talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin bolalar, yoshlar bilan ishlashda ularning xarakteri, qiziqishlariga xos xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland kutarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va maktabdagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishiga havas tug'diradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak xislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarni kamaytirishga erishish mumkin.

Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qolib borishiga erishish mumkin. Yana eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularning qo'lidan keladigan ishlarga e'tiborli bo'lib, uni bajarganidan

keyin rag'batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki har doim emas, balki qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa, u ko'proq natija beradi.

Ijtimoiy psixologiyada tarbiyasi qiyin bolalar jinoiy (huquqiy) va oddiy (axloqiy) qonunbuzarlar guruhiga bo'lib o'rganiladi. Tadqiqotchilar qonunbuzar bolalar va o'smirlardagi salbiy hatti-harakatlarning vujudga kelish sabablariga qarab, tarbiyasi qiyin bolalarning taxminiy tipologiyasini tuzishga harakat qiladilar.

Bunga ko'ra birinchi guruhga balog'atga yetmagan, andishasiz, qaysar o'smirlar kiritiladi. Bunday o'smirlar shaxsiy qarashi, o'zgalarga baho berishi axloq normasiga zid bo'lgani sababli qonun buzadilar, o'z qarashlarini maktab, oila va jamoatchilik fikriga qarshi qo'yishga harakat qiladilar. Shuningdek, bundaylar ko'pincha o'z qilmishlarini yaxshi anglagan holda ish tutadilar. Ular kattalarning izzat-nafsigaga tegish orqali rohatlanadilar. O'rtoqlarini qo'rqitish, ruhan azoblash, va'dalar berish bilan o'ziga og'dirishga intiladilar. Ularda "o'zini ko'rsatish" ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Bunday bolalar va o'smirlardagi "o'zini ko'rsatish" ishtiyoqidan unumli foydalanish mumkin. Masalan, ularni sport to'garaklariga jalb qilish, tadbirlarda tartibni nazorat qilish vazifasini yuklash, ijtimoiy mehnat faoliyatlarida mas'uliyatli uchastkalarni topshirish, ular yo'l qo'ygan kamchiliklarini ta'na qilmaslik, kamchiliklarini birovlar oldida aytmaslik, darsdan tashqari ishlarda rahbarlik vazifasini berish kabi topshiriqlar ular xulq-atvoridagi o'zgarishlarni sog'lomlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Qolaversa, ular erishgan ayrim muvaffaqiyatlarni jamoa oldida rag'batlantirish, fanlarni o'zlashtirishlarini qo'llab-quvvatlash, ular duch kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam berish, shaxslararo munosabatlarda psixologik xususiyatlarini hisobga olishlik yaxshi natija berishligini unutmazlik kerak.

Ikkinchi guruhga beqaror yoki subutsiz, ya'ni o'z mustaqil fikriga ega bo'lmagan bolalar va o'smirlar kiritiladi. Bunday bolalar va o'smirlar barqaror axloqiy e'tiqod, ma'naviy tug'u va shaxsiy qarashlari shakllanib ulgurmaganligi tufayli ikkilanib turadilar. Ularning kishilarni baholash faoliyati favqulotda vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ularda iroda kuchining zaifligi, ma'naviy dunyosidagi beqarorlik, voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik va tashqi ta'sirlarga tez berilishlari tufayli xulq-

atvorida o'zgarishlar kelib chiqadi. Ularning ko'ngli bo'shligi, xarakter o'zgaruvchanligi natijasida ba'zan qonunbuzarlik hodisalari ham sodir etilishi mumkin. Bundaylar ko'pincha birovga bergan va'dasining ustidan chiqa olmaydilar. O'z qilmishlaridan pushaymonlikni his qiladilar.

Bundaylar bilan ishlashda ularni mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, tanqid va o'z-o'zini tanqidga odatlantirish, iroda kuchini o'stirish uchun maxsus mashg'ulotlar o'tkazish, favqulotdagi vaziyatlarga befarqlik xususiyatini qayta tarbiyalash va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish lozim bo'ladi.

Uchinchi guruhga boshqa guruhlarda uchramaydigan psixik xususiyatlar, kechinmalarga boy bolalar va o'smirlar kiritiladi. Bundaylarda xudbinlik, shaxsiy ehtij va istakning kuchliligi yorqin namoyon bo'ladi. SHuning uchun ular o'z xohish-istagi yo'lida har qanday hatto, ba'zan man qilingan yo'llar dan ham toymaydilar. Ular ma'naviy qashshoqligini his qiladilar va bundan o'zlari iztirob chekadilar. Birovlarga yaxshilik qilishni xohlaydilar, ammo xudbinligi tufayli yaxshilik qila olmaydilar.

Bundaylar bilan ishlashda ularning xudbinligini yo'qotish uchun maxsus mashg'ulotlar uyushtirish yaxshi natija beradi. Ularda do'stlik, hamkorlik, insonparvarlik xislatlarini tarkib toptirishga harakat qilish lozim. Bundaylarni rahbarlik ishlariga jalb qilish ularda mas'uliyat hissini vujudga keltiradi. Mustaqillik, ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tanqid singari shaxs sifatlarini shakllantirishga e'tibor berish zarur.

Affektiv kechinmali, ehtiroslarga boy, qo'g'aluvchan, ruhiy beqaror bolalar va o'smirlar to'rtinchi guruhni tashkil qiladi. Bundaylar jamoada, oilada va o'rtoqlari davrasida o'z o'rnini topa olmaydigan, o'zini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lmagan, doimiy ravishda ruhiy iztirobga tushuvchi, harakatlari sust, ko'pchilikning nazarida bo'lishni yoqtirmaydigan, noaniq sabablarga ko'ra azoblanuvchi bo'ladilar.

Bundaylar bilan ishlashda ulardagi impul'sivlik, affektga moyillik xususiyatlarining oldini olishga va bunday vaziyatlarga tushgan paytlarda oqilona maslahat berish, iroda sifatlarini shakllantirishga doir tadbirlarni ko'proq olib borish maqsadga muvofiqdir. Ularda qiyinchiliklarni yengishga nisbatan bo'lgan intilishni vujudga keltirish, o'z-o'ziga va o'z kuchiga ishonch hissini tarbiyalash, dadillikni vujudga keltirish, shaxsiy faoliyatlarini shakllantirish va uyushtirishga yordam berish ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.

Shuningdek, tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlarni tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: Eng avvalo, bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, ularni "ko'ngil ochar" o'yinlarda ishtirok etishlariga, be'mani "hordik chiqarish" va ko'cha-ko'yda maqsadsiz yurishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun maktab, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorligini mustahkamlash, bolalarni iloji boricha maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish chora-tadbirlarini qo'llash kerak.

III BOB. XULQI OG'ISHGAN O'SMIRLAR SHAXSI VA ULARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH TAJRIBALARI.

3.1. Xulqi og'ishgan o'smirlar psixologiyasini diognostik o'rganish.

Ma'lumki, xulq og'ishining kelib chiqishi xilma-xil omillarga bog'liqdir. Shuning uchun uni tadqiq qilish ishlari bu muammoga har tomonlama yondashuvni taqozo qiladi. Shu boisdan tadqiqotimizda voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit va oilaviy tarbiyaning o'rnini o'rganishda bir qator metod va metodikalardan foydalanildi.

1. Shaferning «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» (1965) test- so'rovnomasining Z.Mateychik, Rjichan (1983) tomonidan moslashtirilgan va tadqiqot uchun maxsus qayta ishlangan variantidan foydalanildi. Ushbu testni qo'llashdan maqsad o'smirlarning ota-onalari xulq-atvori va ularning farzandlariga qiladigan munosabatini o'rganishdan iboratdir.

2. Tadqiqotda suhbat metodidan ham keng miqyosda foydalanildi. Suhbat jarayonida xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar, ularning ota-onalari ishtirok etdilar..

O'zbek pedagoglari va psixologlarining o'smirlik èshidagi bolalarning psixologik xususiyatlariga bo'lgan qarashlari G'arb davlati psixologlarining qarashlaridan ancha farq qiladi. O'smirlik èshiga baho berishda ko'pincha xorijiy mamlakatlarning psixologlari bu èshdagi odamga azaldan xos bo'lgan qandaydir dastlabki mayl sifatida paydo bo'ladigan o'z-o'zini tasdiqlashga ongsiz intilishni asos qilib oladilar. Bu ularning fikricha, go'è albatta xudbinlikka, boshqa kishilarni nazar pisand qilmaslik hissini yuzaga kelishiga, tevarak atrofdagilar bilan kelishmaslikka hamda shuning bilan birga ko'pincha yakkalanishga intilishga olib keladi.


3.1.1-jadval

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining ijtimoiy institutlar ta'siri orqali shakllanadigan omillar

OILAVIY MUHIT	Oiladagi nomaqbul ijtimoiy muhit Oiladagi yomon maishiy sharoitlarda yashashi Oilada ijtimoiy rejaning yo'qligi Oilada farzandlarining kelajagiga nisbatan umidsizlik Ota-onalik majburiyatlariga mas'uliyatsizlik Oilada shakllanmagan va ta'sir ko'rsata olmaydigan muhit
ULAR BILAN YONMA-YON YASHOVCHILAR (qo'ni-qo'shnilar, mahalla ahli)	Qarovsiz uy-joy sharoiti "Omadsiz va tashkil" topmagan ichki madaniyat.Ko'cha bolalariga qo'shib ketish
VOYAGA yetmaganlar SHAXSIGA BOG'LIQ OMILLAR	Salbiy ijtimoiy ko'nikmalar va shakllanmagan sog'lom xulq-atvor Ta'lim bo'yicha bilimdonlikning yetishmasligi va intellektning sustligi O'zini o'zi baholashning pastligi
MAKTAB HAYOTI	Ta'limda yetarli darajada bilim egallamaganlik Ta'lim tizimida ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi Stigmatizatsiya Ijtimoiy umidsizlik
TENGQURLARI DAVRASINING TA'SIRI	Deviant xulq-atvorga nisbatan ko'nikma va munosabatni o'rnatish Tengqurlari orasidagi nufuz O'zini o'zi baholashning tiklanishi va qaytarilgan qadriyatlar
HUQUQ TASHKILOTLARI VA JAMOATCHILIK O'RTASIDAGI	Stigmatizatsiya Ijtimoiy rejalarning pasayishi

ALOQANING YO'QLIGI	
MEHNAT BOZORI	Ishsizlik yoki doimiy ishning yo'qligi va kam daromad Mehnat bozorida sust ijtimoiy rivojlanganlik

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari ko'rinishlari voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'layotganligi kuzatiladi. Buni «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» testi natijalari ham ko'rsatib turibdi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ota-onalar oilada farzandlari bilan turlicha muomala va munosabatda bo'lishlari ma'lum bo'ldi. Buni jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'z ota-onalari xulq-atvorlari to'g'risida bergan ma'lumotlari ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra, xulq



og'ishiga ega bo'lgan voyviyaga yetmaganlar tarbiya ko'rgan oilalarda ota-onalarning ko'pincha farzandlariga «erkinlik berish» asosida muomala munosabatda bo'shliqlari kuzatildi. (15,32 %) (3.2.1-rasmga qarang)

3.1.1 rasm. «Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» testi natijalari

Nazarimizda, bolalarga haddan ortiq erkinlik berish ularni o'z bilganicha ish tutishga, qilayotgan ishining to'g'ri yoki noto'g'riligini anglab yetmaslikka olib keladi. Ota-ona nazoratidan, so'rab terlashdan chetda qolgan o'smir o'zini erkin bilib, ko'ngli tusagan ishga qo'l uradi. Bunday xatti-harakatlar ba'zan noqonuniy bo'lishi ham mumkin.

Oilada ota-onalarning farzandlariga «mustaqil faoliyat yuritish» asosidagi munosabati ham ularda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lganligi kuzatiladi. (20.24%)

Yuqorida ta'kidlanganidek, bolani o'z holicha tashlab qo'yish, ular faoliyatini nazorat qilmaslik voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi davr o'smirlari o'zlarining bundan 30 yil oldingi tengdoshlariga nisbatan ancha yirik, novcha va kuchli bo'ldilar. Jismoniy yetilishi ham bundan bir necha o'n yillar oldingilarga nisbatan endi bir yarim, ikki yil ilgari boshlanadigan bo'ldi

Shuningdek, oiladagi avtoritar, ya'ni haddan ortiq qattiqqo'llik asosidagi munosabat ham voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligi kuzatiladi. (19,56 %) (3.1.1-rasm)

Oilada bolalarga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me'yorida namoyon qilish va bunda voyaga yetmaganlarning yosh va o'tish davri xususiyatlarini hisobga olish ular xulqida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa voyaga yetmaganlar xulqida o'ziga xos o'zgarishlar kelib chiqadi. Oilada bolalarga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me'yorida namoyon qilish va bunda voyaga yetmaganlarning yosh va o'tish davri xususiyatlarini hisobga olish ular xulqida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa voyaga yetmaganlar xulqida o'ziga xos o'zgarishlar kelib chiqadi.

Mikromuhit hisoblangan oila muhiti ham voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan biz quyida voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishida oila muhitining o'rni masalasiga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Biroq keyingi yillarda oilada

farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki, ushbu muammolar voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qadriyatlar yo'nalganligi bo'yicha Rokich metodikasi	
	KOning differenziatsiyalashgan tarkibi shakllangan o'quvchilar-9 ta
	KOning differenziatsiyalashgan tarkibi endi shakllana boshlagan o'quvchilar-12 ta
	KOning differenziatsiyalashgan tarkibi shakllanmagan o'quvchilar- 11 ta

Kuzatishlarimizga qaraganda, oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilmoqda.

Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta-darajada mehr qo'yadilar. Ularni asrab avaylaydilar, e'zozlaydilar. Ularga gard yuqtirmaslikka harakat qiladilar. Aytgan yoki istagan narsalarni muhayyo qilishga intiladilar. Bir qarashda ota-ona shunday qilsa, nima qilibdi, deysiz. Ammo ota-onalarning bolalarga bunday munosabatlari bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ota-onasi tomonidan ko'rsatilayotgan bunday munosabat natijasida bolada manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar paydo bo'lmoqda. Bunday xislatlarga ega bo'lgan bolalarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, olijanoblik, o'zgalarni hurmat va e'zozlash, mehnatning qadriga yetish xislatlari shakllanmaydi. Shuningdek, ularda maqtanchoqlik, birovlarining ustidan kulish, nochorligini yuziga solish odatlari ham kuzatiladi. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Bundaylar o'z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do'stlari doirasining torligi tufayli ko'pincha tengdoshlaridan yakkalanib qoladilar.

Bugungi kunda o'zbek oilasida mavjud bo'lgan tarbiyadagi nuqsonlardan yana biri ota-onalarning rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usulidir. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning xohish-istagi, o'y-xayollari, orzu va intilishlari, fikr va

mulohazalari inobatga olinmaydi. Bundan tashqari bunday tarbiya usulida bolalarga o'z fikr mulohazalarini ochiqcha bayon etish, mustaqil qarorlarga kelish va muayyan vaziyatlarga o'z nuqtai nazarini bildirish imkoniyati cheklanadi. Bunday tarbiya usulida ba'zan bolalarning xatti-harakatlari majburiy tarzda taqiqlash usullari bilan boshqarib boriladi. Uyda bu narsaga tegish mumkin, bu narsaga tegish mumkin emas, bu kiyimni kiyasan, bunisini kiyimaysan qabilidagi munosabat o'rnatiladi. Bolaning qiziqishi, erkinligi, o'ziga yoqqan kiyimni kiyishi, ko'ngli istagan ish bilan mashg'ul bo'lishi, qiziqqan kitobini o'qishi va xohlagan sport turi bilan shug'ullanishi ota-ona ixtiyori bilan amalga oshiriladi. Oilada ota yoki onaning aytgani-aytgan, degani-degan bo'ladi. Bunday usulda tarbiyalangan bolalarda mustaqil fikr yuritish qobiliyatining sust rivojlanishi, tortinchoqlik, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olmaslik, tobelik, qo'rqqoqlik va jur'atsizlik kabi salbiy xislatlar yorqin namoyon bo'ladi. Jur'atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o'z-o'ziga ishonch hissi yetishmaydi. SHuningdek, ularda nutqning sust rivojlanishi holati ham kuzatiladi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlariga tobe bo'lib yashaydilar. Ularda rahbarlik, boshqaruvchanlik qobiliyatlari sust rivojlangan bo'ladi. Ular birovlarining gap-so'zlariga tez uchadilar. SHuning uchun ular aldovlar, ko'zbo'yamachiliklar, tamagirliklar qurboniga aylanadilar. Ulardagi fikrlash qobiliyatining sust rivojlanganligi nizoli vaziyatlarga tez-tez tushib qolishlariga sabab bo'ladi. Bundaylar nizoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishga qiynaladilar. Ular birovlarining ta'siri, qistovi yoki majburlashi natijasida turli xil qonunbuzarliklarni amalga oshirishlari mumkin.

O'zbek oilalarida berilayotgan tarbiya nuqsonlaridan yana biri oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarimizdan, ya'ni ertak, maqol, rivoyat va hadis ilmidan yetarlicha foydalanilmayotganligidir.

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, tadqiqotimizda ishtirok etgan ota-onalarning atigi chorak qismi farzandlariga yoshligida ertak, rivoyat va maqollar aytib berishganligini eslashadilar, xolos. Axir qadriyatlarimiz, xalq og'zaki ijodi durdonalari, rivoyatlar va hadis ilmi bolalarda yaxshilik, olijanoblik, sog'lom xulqlilik xislatlarining shakllanishiga xizmat qilishligi hammaga ayon-ku. SHunday bo'lsa-da, nega bugun farzandlar tarbiyasida bu masalaga e'tiborsizlik qilamiz. Sizu bizning ana shu e'tiborsizligimiz, erta katta bo'lganda tarbiyalanib qolar degan aqidaga berilishligimiz bolalarmizning barkamol, xush xulqli insonlar bo'lib yetishishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

O'zbek oilalarida ota-onalarning farzandlarni tarbiyalashdagi kamchiliklaridan yana biri bolalarning tarbiyasiga yoshligidan e'tibor bermaslikdir. Xalqimizda «to'qqizida bo'lmagan to'qsonida ham bo'lmaydi» degan ajoyib naql bor. Bolani qanchalik erta o'rgatsang, tarbiya bersang, shunchalik tez moslashadi, o'rganadi. Afsuski, ko'pgina ota-onalar yoshligida farzandimning qorni to'q, usti but bo'lsa bo'ldi deb o'ylashadi. Yoshi 16-17ga borib, maktabni bitirayotganda esa farzandi haqida o'ylab qolishadi. Bu davrga kelib farzand tarbiyasi, uning ertangi kuni haqida o'ylashi kech bo'lganligini ko'pchilik ota-onalar anglab yetmaydilar. Natijada tarbiyada qo'ldan boy berilgan fursat azobini o'zimiz tortamiz. Bu ham yetmaganidek bolaning kelajagi, ertangi kuni, farovon va baxtli hayot kechirishini barbod qilamiz. Bunday holatlarda aybni ko'pincha bolalardan izlaymiz. O'z aybimizni esa tan olmaymiz yoki ko'ra bilmaymiz.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, respondent voyaga yetmaganlarda ota-onalariga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lishiga oilaning degratsiya xususiyati, ya'ni oilada nosog'lom muhit, ota-onalarning ichkilikbozlik, giyohvandlik, qimorbozlik va jinsiy axloqsizlik bilan shug'ullanishlari sabab bo'ladi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar yashayotgan oilalarda aynan shunday xususiyatlarning mavjudligi kuzatildi. Ammo bulardan tashqari bunday oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi, qat'iy hayotiy maqsad va yo'nalishning, oila a'zolari o'rtasida bir-biriga nisbatan izzat-hurmat, mehr-oqibatning yo'qligi, oilaning tarbiyaviy ta'sirchanlik darajasining pasayib ketganligi, oilada ota ta'sirining yo'qligi yoki pasayishi, oilada farzandlarga milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning yo'qligi hamda oilada bolalar tarbiyasiga qariyalarning jalb etilmasligi va shu kabi bir qator nuqsonlarning mavjudligi kuzatildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga nosog'lom ijtimoiy-psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar asosiy omillardan biri sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotimizdan olingan empirik ko'rsatkichlar asosida xulqida og'ishi bor o'smirlarning xulq-atvoriga ota-onaning xatti-harakatlarini ta'sirining ichki qonuniyatlarini aniqlashda korrelyatsion tahlil usuliga tayandik. Korrelyatsion tahlil natijalari quyidagi jadvallarda taqdim qilinadi.

3.2. Xulqi og'ishgan o'smirlar bilan ishlash va ularga ta'sir kursatish.

Xulq og'ishining oldini olishda psixologik yordam amalga oshirilayotgan tizim bosqichlaridan biri sifatida boshlovchi va asosiy o'rinni egallaydi va gumanistik yo'nalganligi bilan farqlanadi. Bunda psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o'z hayoti uchun mas'uliyatni qabul qilish, o'zaro ishonch, qo'llab-quvvatlash, shaxs va individualligini hurmatlash kabi tamoyillarni hisobga olish nazarda tutiladi. Shaxsning og'ishgan xulqi turlicha ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi. Xulq og'ishining oldini olishda psixologik yordam ikkita yetakchi yo'nalishni taqozo qiladi. Bu psixologik prevensiya (ogohlantirish, psixoprofilaktika) va psixologik intervensiya (bartaraf etish, korreksiya, reabilitatsiya). Psixologik tashxis, xulq og'ishining oldini olishning mustaqil yo'nalishi hisoblanmaydi, aksincha, xulq og'ishining oldini olishning umumiy maqsadiga kiradi.)

Psixologik yordamning ikki asosiy turini farqlash mumkin. Og'ishgan xulqning oldini olish birinchi navbatda ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko'zda tutadi: umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy-sanitar, pedagogik, ijtimoiy-psixologik va b.q. Og'ishgan xulqning oldini olish muvaffaqiyati shartlari uning majmuaviyligi, ketma-ketligi, differentsialligi, o'z vaqtida amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Og'ishgan xulqni oldini olishning keyingi tizimi faol shakllanayotgan shaxs, masalan, o'smirlar bilan ishlashda, ayniqsa, muhim hisoblanadi.

Yoshlar submadaniyati bilan ishlash. "Yoshlar giyohvandlikka qarshi" harakati yoki ommaviy rok-guruhlarining chiqishlari bilan shu nomdagi aksiyalarni tashkillashtirish shaklida tashkil etilishi mumkin. Bunda ayniqsa yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ishlash muhimdir. Masalan, diskotekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo'lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo'qotish bilan bog'liq kechinmalar va tragik taqdirlar haqida bilib olishlari mumkin.

O'smirlar bilan ishlash tadbiri. Bunday tadbirlarni ko'chalarda tashkil etish ham mumkin. Bu orqali tegishli ishlarni olib borish uchun o'smirlar sardorini tayyorlash mumkin.

Shuningdek, ushbu yondashuv doirasida istalmagan xulq bilan qo'shilmaydigan sharoit va ko'maklashuvchi "hudud"larni yaratishga urinishlarni qo'llash mumkin. Ammo unutmash kerakki, modelning asosiy kamchiliklaridan biri ijtimoiy omillar va og'ishgan xulq o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning yo'qligi hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu yondashuv yetarlicha samarador usullardan sanaladi.

Psixoprofilaktik ishning ikkilamchi shakli – xabardor qilishdir. Bu biz uchun birmuncha odatiy psixoprofilaktik ishni olib borishning ma'ruza, suhbat, adabiyotlar yoki video va telefil'mlarni tarqatish shaklidagi ko'rinishidir. Yondashuv mohiyati konstruktiv qarorlar qabul qilishga uning layoqatini ko'tarish maqsadida shaxsning kognitiv jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga urinishdir.

To'rtinchi shakl – alternativ deviant xulq faoliyatini tashkil etish. Ishning bu shakli deviant xulqning o'rinbosar samarasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish bilan bog'liq. Masalan, o'z-o'zini baholashni oshirish yoki referent muhit integratsiyasida muhim rol o'ynashi mumkin. Psixologik bilimlarga qaraganda, odamlar kayfiyatni yaxshilovchi psixofaol moddalardan uning o'rniga nimadir yaxshirog'ini olmaganlaricha foydalanadilar. Faollikning alternativ shakllari sifatida quyidagilar tan olindi: bilim (sayohat), o'zini sinash (toqqa sayohat, xatarli sport), ahamiyatli muloqot, sevgi, ijodkorlik faoliyati (shu jumladan, professional, diniy-ma'naviy, homiylik).

Bu shakl shakllangan og'ishgan xulq holatida yordam ko'rsatishning deyarli barcha dasturlarida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustaqkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish yotadi. Shuning uchun ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini unutmashliklari lozim. Agar o'smirda yoshlikda ijobiy ehtiyojlar shakllanmagan bo'lsa, shaxs salbiy ehtiyoj va bilimlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi.

Beshinchi shakl – sog'lom turmush tarzini tashkil etish. U salomatlik uchun shaxsiy javobgarlik, atrofdagi dunyo va o'z organizmi bilan uyg'unlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Psixologik bilimlardan ma'lum bo'lishicha, odamning maqbul holatga erishishi va muhitning noxush omillariga muvaffaqiyatli qarshi tura olish ko'nikmasi, ayniqsa, qimmatli hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzi, sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy harakat, mehnat va dam olish

tartibiga amal qilish, tabiat bilan muloqot, ortiqcha narsalarni istisno qilishni ko'zda tutadi.

Oltinchi shakl – shaxsiy imkoniyatlarni faollashtirish. Bu usul orqali o'smirlarning sport bilan faol shug'ullanishi, guruhlardagi muloqot va unda shaxsiy ishtiroki, artterapiya – bularning barchasi, o'z navbatida, shaxs faolligi, uning sog'ligi va tashqi salbiy ta'sirga beriluvchanligining mustahkamligini ta'minlovchi shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirishga erishish mumkin.

Ettinchi shakl – deviant xulqning salbiy oqibatlarini kamaytirish. Ishning ushbu shaklidan shakllanib bo'lgan og'ishgan xulqli holatlarda foydalaniladi. U ogohlantiruvchi yoki uning salbiy oqibatlarini profilaktika qilishga yo'naltiriladi. Masalan, giyohvandlikka tobe bo'lib qolgan o'smirlarga o'z vaqtida tibbiy yordam, shuningdek, shunga o'xshash kasalliklar va ularni davolash bo'yicha zaruriy bilimlarni olishlari mumkin.

Psixoprofilaktik ishning xilma-xil ko'rinishlarida o'xshash shakllar va usullardan foydalanish ham mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllarini ajratish mumkin: individual, oilaviy, guruhli ish. SHuningdek, og'ishgan xulqni oldini olish maqsadida turlicha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi. Psixoprofilaktik ishning yetakchi usullari orasida: xabardor qilish, guruhli munozaralar, trening mashqlari, obrazli o'yinlar, samarador ijtimoiy axloqni modellashtirish, psixoterapevtik uslublar bor.

Foydalanilgan usullarga bog'liq ravishda psixoprofilaktik ish trening, psixologik maslahatlar, inqirozli holatlarga yordam berish (ishonch telefonlari), shuningdek, chegara holati va asabiy-psixik buzilish psixoterapiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Oila markazi oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatda zamonaviy namunali oila mezonlarini joriy etish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish sohasida respublikaning yetakchi ilmiy-tadqiqot ekspert muassasasi hisoblanadi;

Oila markazi oila institutini rivojlantirish sohasida amalga oshiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadi, tadqiqotlar natijalari amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi kun psixologiya fanida inson xulq-atvoridagi o'zgarishlar va axloq normasidan chetga chiqish hodisasi ijtimoiy hayot bilan bog'liq ekani va ularni sog'lomlashtirish mumkinligi to'g'risidagi ta'limot ilmiy jihatdan asoslanildi. Shunga ko'ra tarbiyasi qiyin bolalar xulq-atvorini sog'lomlashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ma'lumki, yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati – ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish davri hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. Bu jarayonlar o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Salbiy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbilarmonchilik kabilar kuzatiladi va bunday xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash (jamo'a orasida tarbiyalanganda ham)da faqat ularga yakkama-yakka yondashish lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lish talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin bolalar, yoshlar bilan ishlashda ularning xarakteri, qiziqishlariga xos xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland kutarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va maktabdagi kishilarning

ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishiga havas tug'diradi.

Uchinchi guruhga boshqa guruhlarda uchramaydigan psixik xususiyatlar, kechinmalarga boy bolalar va o'smirlar kiritiladi. Bundaylarda xudbinlik, shaxsiy ehtij va istakning kuchliligi yorqin namoyon bo'ladi. Shuning uchun ular o'z xohish-istagi yo'lida har qanday hatto, ba'zan man qilingan yo'llardan ham toymaydilar. Ular ma'naviy qashshoqligini his qiladilar va bundan o'zlari iztirob chekadilar. Birovlarga yaxshilik qilishni xohlaydilar, ammo xudbinligi tufayli yaxshilik qila olmaydilar.

Bundaylar bilan ishlashda ularning xudbinligini yo'qotish uchun maxsus mashg'ulotlar uyushtirish yaxshi natija beradi. Ularda do'stlik, hamkorlik, insonparvarlik xislatlarini tarkib toptirishga harakat qilish lozim. Bundaylarni rahbarlik ishlariga jalb qilish ularda mas'uliyat hissini vujudga keltiradi. Mustaqillik, ijodiy fikr yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tanqid singari shaxs sifatlarini shakllantirishga e'tibor berish zarur.

Affektiv kechinmali, ehtiroslarga boy, qo'g'aluvchan, ruhiy beqaror bolalar va o'smirlar to'rtinchi guruhni tashkil qiladi. Bundaylar jamoada, oilada va o'rtoqlari davrasida o'z o'rnini topa olmaydigan, o'zini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lmagan, doimiy ravishda ruhiy iztirobga tushuvchi, harakatlari sust, ko'pchilikning nazarida bo'lishni yoqtirmaydigan, noaniq sabablarga ko'ra azoblanuvchi bo'ladilar.

Xulq og'ishi yosh va individual-psixologik xususiyatlariga ko'ra, murakkab mazmunga egadir. Shuning uchun voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar voyaga yetmaganlarning yosh, individual-psixologik va xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlarining samaradorligi ularning sog'lom xulqli voyaga yetmaganlar o'rtasida ham olib borilishiga bog'liqdir. Shuning uchun profilaktik tadbirlar nafaqat xulq og'ishiga ega bo'lgan, balki sog'lom xulqli voyaga yetmaganlar o'rtasida ham olib borilishi zarurdir. Qolaversa, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishini oldini olish tadbirlari samaradorligi va ta'sirchanligi eng avvalo o'smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar va ularda ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarni shakllantirishga ham bog'liqdir. Shuningdek, xulq og'ishining oldini olishda voyaga yetmaganlarning oiladagi va sinf jamoasidagi o'rni, oila a'zolari va sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarini sog'lomlashtirish,

xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning oila a'zolari va sinfdoshlaridan izolyatsiya- lanishining (ajralib qolishini) oldini olish, bunday voyaga yetmaganlarni oilada va maktabda, ularning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib, turli xil tadbirlarga jalb qilish, oilada va maktabda ularga nisbatan iliq, ijobiy va faol munosabat ruhini yuzaga keltirish masallariga e'tibor qaratish yaxshi natija beradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil etib va tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi xodimlarning faoliyatlarini o'rganib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi xodimlarning psixologik bilimlarini va malakalarini oshirish zarur.

2. Bu sohaga pedagogik moyilligi mavjud va bolalar bilan ishlashni yoqtiradigan xodimlarni ishga qabul qilish kerak.

3. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi xodimlar uchun maxsus adabiyotlar va usullar ishlab chiqish.

4. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi xodimlar ruhiyatida kuchli zo'riqish yuzaga kelishi aniqlandi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar berildi:

- Bugungi kunda mamlakatimizda aynan o'quvchilar uchun mo'lljalangan kasb tanlash bo'yicha yaxlit bilim beradigan ommabop adabiyotlarning ko'proq yaratilishi;

- Mexribonlik uylaridagi o'qitish tizimida o'quvchini mustaqil kasb tanlashiga

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.2017. – 6 (766)-son.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni. –T.: 2017. -B1-3.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni. –T.: 2017. -B1-3.

4.Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

5.www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/juveniles_deinquency_prevention.shtml

6. G'oziyev E.G'.,Tulaganova G. Trudniye podrostki. T.: Yosh gvardiya. 1989. - 71 s., G'oziyev E.G'. O'spirinlar axloqi va ruhiyati. Oila etikasi va psixologiyasi. - T. 2000. - B.33-38

7- Karimova V.M. Oila salomatligida inson ruhiyatining imkoniyatlari. To'plam. -T.: 2003. - B. 3-7., Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. T.: «YAngi asr avlodi». 2005. -72 b.

8.Umarov B.M. Bolalar tarbiyasida etnopsixologik va etnopedagogik xususiyatlarni hisobga olish.//Xalq pedagogikasi bo'yicha xalqaro simpozium materiallari to'plami. Termiz, 1995. - B.34-37.,Umarov B.M. O'smirlarda jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.//«Pedagogik ta'lim». Toshkent, 2001. № 2. – B. 44-46., Umarov B.M. Sog'lom avlod asoslari. -Toshkent.: Ibn Sino. 2001. -117 b., Umarov B.M. O'zbek oilaviy tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar.//«Xalq ta'limi». Toshkent, 2003. № 2. – B.55-57., Umarov B.M. Semeyniye faktori sotsial'nogo riska i otkloneniya povedeniya nesovershennoletnix.//O'zDJTU, «YOsh olim – 2006» ilmiy amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent, 2006. - B. 193-197., Umarov B.M. O'smirlik yoshi xususiyatlari va xarakter o'zgarishi.//

9.Kamaletdinova Z.F. Psixologi.//Lichnostno-oriyentirovanniy podxod k sovremennomu obucheniyu. Sb.nauch. statey. CHast' 9. - S.55.59.

cheskiye osobennosti motivatsionno – smislovoy sferi starshiklassnikov s otklonyayushimsya povedeniyem. //Diss. kand. psixol. nauk. Tashkent. 1993. - 148 s.

10. Sog'inov N.A. Sog'lom avlodni shakllantirishning ayrim jihatlari.//«Sog'lom avlod uchun». 2002, - № 8. - B.17-32.

11.To'laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. T.: "O'zbekiston". 2005. -122 b, G'oziyev E.G'.,Tulaganova G. Trudniye podrostki. T.: 1999. - 71 s

12.Kamilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari resotsializatsiyasining psixologik xususiyatlari.Avtoreferati. Toshkent.:2020. -77 b.

13.Gileva, N.S. Psixologiya deviantnogo povedeniya : uchebno-metodicheskoye posobiye. - Izd. 2-e, ispr. i dop. - Omsk: Izdatel'stvo SibGUFK. 2012. -128s

14.Igoshev K.E., Min'kovskiy G.M. Sem'ya, deti, shkola. - M.:1999.- 448 s.

15.Zyubin L.M. Uchebno-vospitatel'naya rabota s trudnimi uchashimsya. M.: Visshaya shkola. 1992. - 190 s., Zyubin L.M. Psixologiya trudnovospituyemix. V.kn.: Nauka i texnika. Riga. 2000. № 5. -S.36-39., Zyubin L.M. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar. T.: «O'qituvchi», 1997.

16.Kondrashchenko B.T. Deviantnoye povedeniye u podrostkov: sotsial'no-psixologicheskiy i psixiatricheskiy aspekt. Minsk, 1998. - 206 s.

17.Leont'yev A.N. Deyatel'nost'. Soznaniye. Lichnost'. M.: «Politizdat». 1997. - 18. Ostrovskiy A.I. Profilaktika pravonarusheniy shkol'nikov//Uchebnoye posobiye dlya prepodovateley i studentov pedagogicheskix VUZ. -Tashkent, «O'qituvchi». 1995. - 216 s.

19.Bandura A., Walters R.H. Social learning and personality development. Neu York: Holt and Winston. 1993. P-25.

20. Binder A. Juvenile delinquency. Annual Review of Psychology,

1988. 39. P. 252-282.

21. Fel'dshteyn D.I. Psixologiya sovremennogo podrostka. - M.: «Pedagogika». 1997. - 237 s.

22. Freyd Z. Psixologiya mass i analiz chelovecheskogo «YA». Sovremenniye problemi. - M.: 1995. - S. 9-11.

23. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. (Monografiya) "Fan" nashriyoti, Toshkent – 2008, 284 b.

24. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'zR FA, "Fan", 2000. B.20;

Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. - T; "O'zbekiston", 1997. B.48.

25. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. (A. Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). - T; SHarq, 1998, B. 279

²⁶Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G'.G'ulom nomidagi nashri- yot-matbaa ijodiy uyi". T; 2010. B. 707.

27. Tarbiya ensiklopediyasi. 2010. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", B.509.

28. G'ofurov G'. Milliy an'analar//Xalq so'zi, 1993 yil. 11 fevral', B. 2

29. Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi.

Tarbiya. №2 (6), 2006. B.13

³⁰Qodirova O. Oilaviy kelishmovchiliklar. Tarbiya №2 (6), 2006. B. 22.¹³¹³

³¹Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'ofur G'ulom nomidagi nashri- yot-matbaa ijodiy uyi- Toshkent; 2010. B. 241

32. Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. T; "Ijtimoiy fikr", 2011. B.44-45.

33. Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. T; "Ijtimoiy fikr", 2011. B.44-45. T; "Ijtimoiy fikr", 2011. B.44-45. O'sha manba, B. 45.

- ³⁴.Marg'inoniy B. "Al-Hidoya", 1-jild. T; 2001; Y Ana qarang "Hidoya", O'zME, 11-jild.T; 2005. B. 326
- ³⁵Koshifiy V.H. Axloqi uMhsiniy. - T; O'zME, 2010.

36.Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitobT; "TSKON^o[^VO^" nashri- yoti, 2006. B.73.

³⁷.Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A.

Shaxs ma'na- viyatini shakllantirish omillari va vositalari.

T: "Falsafa va huquq insti- tuti" 2009. B.12

³⁸.Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A

Shaxs ma'na- viyatini shakllantirish omillari va vositalari. T:

"Falsafa va xuquq insti- tuti" 2009. B.16

39.Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti.-T: Falsafa va huquq insti- tuti. 2008. B.26

⁴⁰. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etti- rib, yangi bosqichga ko'taramiz."O'zbekiston", 2016.B.486

41. www.ziyonet.uz

42.www.refaratlar.uz

43. www.kasu.uz

44. www.edu.uz

ILOVALAR

«Ota-onalar xulq-atvori o'smirlar nazarida» testi. (ADOR). Test ota-onalarning oilada voyaga yetmaganlarga berayotgan ustanovkalari, xulq-atvori va tarbiya usullarini o'rganish uchun ishlatiladi. Ushbu test 1965 yilda yaratilgan SHafer so'rovnomasi asosida Z.Mateychik va P.Rjichan tomonidan ishlab chiqilgan. Test 12 – 18 yoshdagi o'smirlar va o'spirinlarga mo'ljallangandir. U 50 savoldan iborat. Sinaluvchilardan test savollariga «Ha», «Goho» va «Yo'q» deb javob berishlari so'raladi.

Sinaluvchilarga test savollarini berishdan avval tushuntirish beriladi.

K o' r s a t m a: Sizlardan ota-onalaringizning xulq-atvori, sizga bo'lgan munosabati va ularga xos bo'lgan xarakter xislatlarini baholash so'raladi. Buning uchun eng avvalo har bir savolni diqqat bilan o'qib chiqishingiz va o'qigan savolingiz ota-onangiz xulq-atvorida kuzatilsa « 2 », agarda biroz to'g'ri kelsa « 1 » va umuman to'g'ri kelmasa « 0 » raqamini qo'ying. So'ngra, sinaluvchiga ota-onalari uchun alohida – alohida javob blankalari beriladi. Dastlab sinaluvchilar onalari uchun javob berishlari va bu javob varaqasini topshirgandan so'ng otalari uchun javob varaqasini to'ldirishlari talab etiladi.

Test natijalaridan olingan xulosalarga asosan ota-ona xulq-atvori va unga o'smirlar munosabatining quyidagi ko'rinishlari aniqlanadi.

- 1.Erkinlik berish asosidagi munosabat (POZ).
- 2.Avtoritar boshqaruvchanlik (DIR).
- 3.Qahr-g'azab asosidagi munosabat (HOS).
- 4.Mustaqil faoliyat yuritish asosidagi munosabat (AUT).
- 5.Tarbiyada izchillikning yo'qligi (Neposledovatel'nost').

A D O R

O'smirlar uchun psixologik so'rovnoma

Familiya _____ Ismi _____ SHarifi _____

	Mening otam (mening onam)	Ha	Goho	Yo'q
	Menga har doim kulib munosabatda bo'ladi	2	1	0
	Nimalarni qila olishim va nimalarni qila olmasligimni, egallashimni qattiq turib talab qiladi.	2	1	0
	Menga nisbatan chidamsizlik ko'rsatadi	2	1	0
	Men uydan chiqsam qachon kelishimni o'zi hal qiladi	2	1	0
	O'zining gapirganini yoki buyurganini har doim tez unutadi	2	1	0
